

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Ko'lyozma huquqida
UDK: 336.5:6.01(575.11)

SHORAXMATOV SUXROB SUNNAT O'G'LI

**TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI
RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n. Tojiyev R.R.

TOSHKENT – 2018

Dissertatsiya ishida quyidagi asosiy masalalar hal etiladi: innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari, ularni takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslarini tadqiq etish; yangi bank xizmatlarini mamlakatdagi iqtisodiy o'sishga ta'sirining ilmiy-amaliy jihatlari o'rganildi. Shuningdek "innovatsion bank xizmatlari" bankning nufuzi hisoblanishini inobatga olib, tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi aynan bank tizimini takomilashuviga yordam beradi.

В диссертации решены следующие основные вопросы: теоретические и методологические основы инноваций; экономического роста страны. Принимая во внимание тот факт, что «инновационные банковские услуги» являются банком, практика будет использоваться для улучшения банковской системы

The following major issues are solved in the dissertation: research of theoretical and methodological foundations of ways of improving the efficiency of innovative banking services; the study of the scientific and practical aspects of the impact of new banking services on economic growth in the country. Taking into account the fact that "innovative banking services" is a bank, the practical application of scientific and practical recommendations in the research process will help to improve the banking system

Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tdi

_____ - sonli bayonnoma "_____" _____ 2018 y.

Ilmiy rahbar:

i.f.n. Tojiyev R.R.

F.I.Sh.

Imzo

Taqrizchi:

i.f.n. Qurbonov H.

F.I.Sh.

Imzo

Magistrant:

Shoraxmatov S.

F.I.Sh.

Imzo

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va asoslanishi. O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarish zaruriyati hamda respublikamiz tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishga qaratilgan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning barqarorligini saqlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish”¹ bugungi kundagi maqsadimizdir. Bugungi kunda tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotdagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha iqtisodiyotimiz tarmoqlari va sohalarida olib borilayotgan islohotlar sharoitida amaldagi xizmatlar sifatini oshirish, yangiliklarni amaliyotga tadbiq etishni faollashtirishni va bunda xorijiy banklar tajribasini keng qo'llash talab qilinadi. Iqtisodiyotda zaruriy tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirmasdan, bank mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalamasdan va texnologik jihatdan yangilamasdan turib jahon moliya bozorida mustahkam o'ringa ega bo'lish mushkul. Innovatsion bank xizmatlarini amaliyotga tadbiq yetish, kuchli raqobat mavjud bo'lgan hozirgi sharoitda, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri yangi bank xizmatlarini va mahsulotlarini ishlab chiqishda yangicha tamoyil va mexanizmlarini amalda joriy etish dolzarb masaladir.

¹ Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947- сонли фармони.
www.lex.uz

Magistrlik dissertatsiya ishining obyekti va predmeti. O'zbekistonda Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi ilmiy tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'yekti bo'lib tijorat banklarining to'g'ridan-to'g'ri innovatsion bank xizmatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotdagi xususan bank sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- innovatsion bank xizmatlarini mazmuni, mohiyati va ularning iqtisodiyotni rivojlanishdagi tutgan o'rnini nazariy jihatdan tadqiq etish va ilmiy xulosalarni shakllantirish;
- bank xizmatlarini tashkiliy-huquqiy asoslari va unda to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbqiq etishni ahamiyatini yoritib berish;
- innovatsion bank xizmatlarini ishlab chiqishda jahon tajribasi va shakllangan iqtisodiy modellarning tavsiflarini asoslab berish;
- banklarni xizmatlarini modernizatsiyalashda innovatsion bank xizmatlarini to'g'ridan- to'g'ri amaliyotga tadbqiq etish modelining tahlilini amalga oshirish va uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirish;
- tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish va samaradorigini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- tijorat banklarida yangi bank xizmatlarini aktivlarining likvidliligi va daromadliligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash taklifi ishlab chiqildi;
- tijorat banklarining depozit bazasining yetarliligini ta'minlash yo'llari taklif qilindi;
- banklarning kapital bazasining barqarorligini oshirish yo'llari asoslab berildi;
- xususiy tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash yo'nalishlari ishlab chiqildi

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotning asosiy masalalariga iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion bank xizmatlarini nazariy asoslarini o'rganish, «DAVR BANK» XATBda bank xizmatlarini tizimini takomillashtirishning hozirgi holatini tahlil etish, innovatsion xizmatlari faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda o'z aksini topgan.

Tadqiqot farazlariga O'zbekistonda tijorat banklarini xizmatlarini yanada rivojlantirish, ular ko'rsatadigan xizmatlar turi va ko'lamini kengaytirish, sifatini oshirishni talab etadi. Bularning amalda bajarilishi tijorat banklarini personal tarkibi, salohiyati, sifati hamda texnik taminoti darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai-nazardan tijorat banklarida mutaxassislarning kasbiy jihatdan ko'tarilishini takomillashtirish, uning zamonaviy usullarini amaliyotda kiritish banklar faoliyati samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Tijorat banklarida bank xizmatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi-olimlar - A.Simanovskiy, A.Vikulin, V.Usoskin, D.Polfreman, G.Tosunyan, F.Ford, G.Beloglazova, J.Sinki, O.Lavrushin, J.Matuk, D.Maknoton, K.Barltrop, G.Panova, E.Dolanlar ning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari - A.Vaxabov, Sh.Abdullayeva, O.Iminov, N.Jumayev, T.Doraliyev, S.Norkobilov, U.Ortitov, D.Saidovlarning ilmiy izlanishlarida tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish masalasining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiqqilingan

Ammo, bugungi kunda Respublikamiz Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlari tizimi faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirishdagi muammolar o'z yechimini topmagan. Shu bois, tijorat banklarida taklif etilayotgan innovatsion bank xizmatlari tizimlarini takomillashtirishga doir muammolarning mavjudligi ushbu dissertatsiya mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llaniladigan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida tizimli, statistik va iqtisodiy tahlil, guruhlash, grafik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar, undagi fikr-mulohazalar, hulosalardan tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari va ulardagi mavjud muammolarni hal etish va takomillashtirishga bagishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ta'lim muassasalarida bank ishi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talablar va magistrantlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan O'zbekiston bank tizimi rivojlantirishiga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanishning mumkinligini belgilanadi

Kutilayotgan natijalar:

- Innovatsion bank xizmatlarini mazmuni va mohiyati ochib beriladi,
- ularning milliy iqtisodiyotni rivojlanishdagi o'rniga baho beriladi;
- tijorat banklarida yangi bank xizmatlarini yaratish va taklif etish tahlil qilinadi;
- innovatsion bank xizmatlarini moliya sektori barqarorlikka ta'siri

o'rganiladi;

- innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy tajribasi tadqiq etiladi va ularni O'zbekistonga ijobiy tadbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi;

- yangi bank xizmatlari tahlil qilinadi, u bilan bog'liq muammolar aniqlanadi;

- innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish va ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Magistrlik dissertatsiya ishining tarkibiy tuzulishi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanishi va dolzarbligi, tadqiqotning ob'yekti va predmeti, tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning asosiy masala va farazlari, tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili), tadqiqotda qo'llaniluvchi metodikaning qisqacha tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ish tuzilmasining tavsifi, dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishinng birinchi bobda to'g'ridan-to'g'ri innovatsion bank xizmatlarini ilmiy-nazariy asoslari va tijorat banklarida ularni rivojlantirish ahamiyati o'rganiladi.

Dissertatsiya ishinng ikkinchi bobda tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini aroflicha tahlil qilinadi hamda tegishli xulosalar shakllantiriladi.

Dissertatsiya ishinng uchinchi bobda tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Dissertatsiya ishining **xulosa qismida** mavzuga oid masalalar bo'yicha boshqa bir qator taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

1-BOB. INNOVATION BANK XIZMATLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

1.1. Innovatsion bank xizmatlari mazmuni, mohiyati va ularning tijorat banklarini rivojlantirishdagi tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan bank - bu tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va huquqiy shaxslarning bo'sh turgan pul-mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda bank - bu korxona deb ham izoh beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga shu jihatdan o'xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o'z faoliyatini o'z asoschilari-aksionerlarning manfaatlarini, ikkinchidan, o'z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu bankarda yig'iladi va bu banklar yuridik va jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keyingi ikkinchi pog'onasi hisoblanadi.

Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in sifatida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi.

Shu sababli banklar, moliya - kredit jarayonlarini boshqarish markazlari sifatida faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida o'z ahamiyatlarini to'la namayon etadilar, moliyaviy tizimni markaziy bo'g'iniga, pul muomilasini tashkil qilish, uning barqarorligini ta'minlashning bosh sifatchisiga aylanadilar.

Shuni unutmaslik kerakki, banklar orqali pul saqlaydigan joy, uni tarqatadigan yoki kredit beradigan kassa emas. Banklar iqtisodiyotni boshqarish va tuzilmaviy siyosatni amalga oshirishning qudratli qurolidir. Ma'lumki, bunday siyosatni moliya, kapital zaxiralarini qayta taqsimlash yo'li bilan ustivor yo'nalishlarda bo'lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'yektlar yaratiladi. Banklar endi mablag'larni moliyaviy resiruslarni kreditlar tarzida, ya'ni yaxshi foyda va samara beradigan markazlarga, sohalarga, mintaqalarga yo'naltiriladi.

“Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2015 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi.

So'nggi yillar davomida «Moody's », «Standard & Poor's » va «Fitch ratings» kabi etakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar 2012 yilda mamlakatimizning 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banklari 2016 yil yakuniga ana shunday bahoga loyiq ko'rildi.

O'tgan 2016 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 280 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta 5 zaxiralari 2 milliard 100 million dollarga ko'paydi ”.

Kreditlashtirish borasida puxta o'ylanmagan siyosat yurtimizning su'niy ravishda o'rnatilgan past foiz stavkalari, mablag'larini havoga sovirishga, davlat byudjetida katta kamomadlarga va oxir oqibatda halokatga inflyatsiyaga olib keladi. Bularning hammasi mamlakatning qashshoqlashuviga olib keladi. Mashhur multimellioder Genri-Fordning fikriga ko'ra, “qashshoqlik ko'p jihatdan uning yuklarini joydan-joyga tashish tufayli sodir bo'ladi. Uzluksiz yotayotgan qor uyumi kabi, katta pul to'dasini hech bir maqsadsiz joy dan-joyga ko'chirish va bunda tobora qashshoqlashib borayotganini sezmaslik

mumkin.”²

Demak, zamonaviy bozor munasabatlari asoslangan bank tizimini yaratish bozor islohatlarini, iqtisodiy qayta qurishni asosiy yo'nalishidir. Chunki, hozirgi zamonda samarali faoliyat yuritayotgan bank tizimiga ega bo'lmasdan turib, samarali ishlaydigan iqtisodiyotni yaratib bo'lmaydi.

Bank tizimiga banklardan tashqari ayrim iqtisodlashgan moliyaviy institutlar ham kiradi. Ular bank maqomiga ega bo'lmaslarda, bank operatsiyalarini amalga oshiradilar. Bundan tashqari bank tizimiga bank infratuzilmasini tashkil qiluvchi, pul kredit institutlarining ish faoliyatini ta'minlovchi boshqa muassasalari ham kiradilar.

Hayotimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni tobora ortib borayotgani bir sharoitda axborotlardan tezkor xabardor bo'lish, turli interaktiv xizmatlardan foydalanish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bank xizmatlari qo'lamini kengaytirish, mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy talablarga javob beruvchi interaktiv xizmat turlari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, aksiyadorlik tijorat Xalq banki tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar ham mijozlarga turli qulayliklar yaratmoqda. Bugungi kunda banklar tomonidan "Internet banking", "Mobile banking", "Uyali Pul", "SMS informer", "Elektron reyestr" kabi interaktiv xizmat turlari joriy qilinib, fuqarolarga tez va sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda. "Internet banking" xizmati orqali bankning yuridik mijozlari internetdan o'z hisob raqami harakatini nazorat qilishi va to'lovlar o'tkazishi mumkin bo'lsa, "Uyali Pul" interaktiv xizmati orqali fuqarolar uyida yoki hohlagan joyidan turib shaxsiy hisob raqamlaridagi mablag'laridan to'lovlarni on-layn ravishda amalga oshirishlari mumkin.

Bundan tashqari, "SMS informer" xizmati orqali bankning yuridik

² [www.ford.com/Brief history of the Company](http://www.ford.com/Brief%20history%20of%20the%20Company).

mijozlari mobil telefoni orqali hisob raqami holatini va harakatini nazorat qilib borishlari mumkin bo'ladi.

Bajaradigan operatsiyalarining harakatiga qarab, universal va ixtisoslashgan banklarni farqlanar edi. Hozirda hamma banklar universal bank hisoblanib, bir o'zi mijozlarga rang-barang operatsiya va xizmatlarni ko'rsatishga qodir bo'lib, u faolyatni cheklanmaganligini ham bildirish mumkin.

Bunday bank faolyatini xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha xizmat ko'rsatadigan mijozlarning tarkibi operatsiyalar soni va hajmi, hamda mintaqalar boyicha ham xizmat doirasi chegaralanmagan bo'ladi. Ya'ni universal bank ko'pchilik tarmoqlarda kredit bersa, ixtisoslashgan bank ko'pincha xalq xo'jaligining bir tarmog'i yoki tarmoqchasiga korxonalar turkumiga xizmat ko'rsatgan.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lmagan mamlakatlarda bank tiziming o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Bank tizimi tushunchasi oddiygina talqin qilganda, u o'z ichiga banklar va bankka xos funksiyalarini bajaruvchi nobank muassasalarini oladi.

Tashkiliy jihatdan bir bo'g'inli va ikki bo'g'inli bank tizimlari mavjud. Rivojlangan davlatlarda ikki darajali bank tizimi mavjud bo'ladi. Unda birinchi bo'gin Markaziy banklar bo'lib, ular mamlakatdagi pul muomalasini tashkil va nazorat qilish rolini bajaradilar.

Ikkinchi bo'ginda esa o'zlari mustaqil bo'lgan, ammo, Markaziy bank nazorati ostida faolyat olib boruvchi tijorat va ixtisoslashgan banklar hamda banklarga xos funksiyalarni bajaruvchi nobank muassasalar kiradi.

Bir bo'g'inli tizimda Markaziy va tijorat banklari bir xil darajada teng huquqli agentlar rolini bajaradilar, ya'ni barcha banklar davlatning banki bo'lib, Markaziy bank bo'limlari sifatida ish olib boradilar. Bunday tizim iqtisodi rivojlangan totalitar rejimlar hukmronlik qilayotgan mamlakatlarga qodir.

Bank tizimi xususiyatlari haqida biz yuqorida ta'kidlab, uning asosiy

elementi bo'lgan banklar va ularning turlari haqida umumiy tushunchalar bergan edik. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos bo'lgan yana bir xususiyati shundaki ularda banklar bilan bir qatorda bank bo'lmagan ammo banklarga xos funksiyalarni bajaruvchi ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari va pochta jamg'arma institutlari ham va mavjud bo'ladi. Bunday moliyaviy tashkilotlarda bo'sh bank tizimi deyiladi. Ular ma'lum toifadagi mijozga, odatda bir yoki ikkita o'ziga xos moliyaviy xizmat turini taklif qiladilar. Ularning faolyati ko'pincha moliyaviy bozorning kichikroq bir segmentiga qaratilgan bo'ladi.

Uzoq yillar davomida jamiyatning rivojlanishi va unga mos tovar-pul munosabatlarning o'sib takomillashib borishi banklarning operatsiyalari va ko'rsatadigan xizmatlari ko'lamining kengayib borishiga olib kelgan. Davlat, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatini muvofiqlikda olib borish, davlat va jamiyat a'zolarining pul mablag'lariga bo'lgan talablarini qondirgan holda davlatning iqtisodiy jihatdan o'sishi va barqarorligini ta'minlash maqsadida banklar o'rtasida ular bajaradigan funksiya va operatsiyalar ko'lami taqsimlana borgan, ya'ni davlat tomonidan, davlat manfaatlarini himoya qilgan holda faolyat ko'rsatuvchi banklar alohida jamiyat a'zolari bilan ishlovchi banklar yoki yuqoridagi ikki yo'nalishi ham o'zida mujassamlashtirilgan banklar shakllana borgan.

Hozirgi zamonda umuman qabul qilingan tizim bo'lib O'zbekiston Respublikasida ham, ikki pog'onali bank tizimi xizmat qiladi va u quyidagi tarmog'ni o'z ichiga oladi:

1. Markaziy bank
2. Tijorat bank.

Markaziy bank banklarning banki sifatida bank va moliya muassasalari faolyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya institutlari, banklarning faolyati moliyaviy jihatda muammolar yuzaga kelganda, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda

moliyaviy sarosima bo'lishini oldini olish kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog'ona-tijorat banklar tizimiga nisbatan bajaradi. Markaziy bank majburiyatiga tijorat banklarning har kunlik faolyatiga aralashish kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarning me'yoriy boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidligini ta'minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish kerak. Bularning barchasi nazorat me'yorlari tizimi yordamida amalga oshirilib tijorat banklari pog'onasiga o'tkaziladi.

Markaziy bank pul siyosatini o'tkazish yo'li bilan muomaladagi pul massasi ustidan nazorat amalga oshiradi va inflyatsiya, ishsizlikning past darajasini ta'minlash va iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak. Bunda markaziy bank emission muomaladan olish huquqiga ega bo'ladi. Markaziy bank ya'ni tijorat banklari o'rtasida hisob kitoblarni olib borishga imkoniyat yaratadi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasi bu - xalq xo'jaligi va aholiga xizmat ko'rsatishdagi bosh bo'gin bo'lgan mustaqil tijorat banklarining tarmog'idir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli hisob - kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Bank tizimida yuzaga kelayotgan holatlar, bugungi kunda bank menejmentiva marketingini yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Banklar soniniko'payishi bu raqobatning kuchayishidir. Bu esa bank boshqaruvida yangi yangivazifalar degani, shuning uchun bank tizimidagi menejment va marketingnirivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Bank tizimidagi samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur.

- bank boshqaruvining iqtisodiy mohiyatini nazariy o'rganish ularni xorij tajribasi bilan solishtirish;

- banklarning yangi xizmat turlarini taklif etish, bankdagi operatsiyalarni boshqarishni yaxshilash;

bank xodimlarini boshqarishni yaxshilash tufayli mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish.

Har bir mamlakatda tijorat banklarining soni turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Shvetsiyada davlat banki 40ga yaqin tijorat banki faoliyatini nazorat qiladi xolos, AQSh da 13000ga yaqin tijorat banklari mavjud. Shvetsariyada esa har 10000 aholiga bittadan moliya muassasasi to'g'ri keladi.

Markazlashtirilgan bank boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatayotgan respublika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarish, lekin uni boshqaruvchiligini nazorat qilish sobiq ittifoq davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimining qator kamchiliklarini ro'yobga chiqardi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi.

Bank tizimini qaytadan tashkil etish 1987 yilda boshlandi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy tuzilmsini o'zgartrish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimning rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kredit haraktdagi iqtisodiy dastaklarga aylantirish ko'zda tutilgan edi. Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichi davlat banklarning yangi tuzilmasini tashkil etish bilan bog'lanadi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: markaziy emission bank va bevosita xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi bevositadavlat banklari;

- ixtisoslashtirilgan davlat banklarni to'laligicha xo'jalikhisobiga va o'z-o'zini moliyalashga o'tkazish;

- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ldigan kredit munosabatlari uslublari va shkalalarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat bankio'zining

kredit tizimidagi markaziy o'rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi. Ya'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo'yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi boshqa barcha banklar uchun bir xil pul kredit siyosatini olib boruvchi muassasasaga aylanadi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar tashkil qilinib xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlashtirildi, ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasining "Banklar tizimini isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1999 yildagi 19-yanvaradgi qaroriga asosan bank tizimini barqarorligini safarbar etish, iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashga banklarning ishtirokini kengaytirish bank xizmatlari sohasida vazifalar belgilab berildi. 1991-2000 yillar mobaynida yuzaga keltirilgan bank tizimini yanada xalqaro andozolarga yaqinlashtirish maqsadida bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilish chora tadbirlarining boshlanishi bank tizimini rivojlanishining 4-bosqichi boshlanganligini ko'rsatadi. Bu bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora tadbirlari to'g'risida"gi 2000 yil 21-martdagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2000 yil 24-martdagi qarori o'zaro qabul qilish bilan boshlandi. 2015 yil 6- may O'zbekiston Respublikasi "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2344 son Prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2017 yil 2 sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni, "Respublika bank tizimini yanada takomillashtirish va

barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-sonli qarori va "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 13 sentabrdagi PQ-3272-sonli Prezidentining qarorlari.

Bu hujjatlarga asosan quyidagilar bu bosqichning asosiy vazifalari qilib belgilandi:

- Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish, tijorat banklari mustaqilligini oshirish;
- Bank tizimi va uning bo'g'inlari rivojlanishini rag'batlantirish;
- Bo'sh turgan mablag'larni bankga jalb qilish va omonatchilarning manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish;
- Banklarning investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylantirish;
- Banklarning mijozlar bilan o'zaro manfaatlilik, sheriklilik munosabatlarni shakllantirish;
- Aholining moliya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish ;
- Xorijiy banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish va valyuta munosabatlarini erkinlashtirish, kengaytirishka bivaqifalar belgilanadi.

Bank boshqaru organi ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun, moliyaviy, moddiy, tashkiliy, huquqiy, ma'naviy psixologik shart-sharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarini bevosita ijro etilishi bilan bog'liq jarayonlarni o'zichiga oladi.

Bank menejmenti asosida, avvalambor, odamlar bilan ishlay olish mahorati yotadi, shu bois bank menejmentining muhim tarkibiy qismlaridan biri xodimlarni boshqarishdir. Sir emaski, inson resurslari sifati ularning bank oldida turgan maqsadlarini amalga oshirishga qo'shgan xissasi hamda bank faoliyatining sifati ko'p jihatdan xodimlar bilan ishlashni samarali yo'lga qo'yilganiga bog'liq.

Ikki bosqichli bank tizimining shakllantirilishi, uning tarkibiy takomillashtirilishi, shuningdek, elektron to'lovlari tizimining yaratilishi joylarda yangi tuzilmalarning: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Bosh hududiy boshqarmalari va Hisob-kassa markazlarining yaratilishiga va ularning faoliyatini yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bu esa bank muassasalarining yangi turi bo'lib, o'ziga xos funktsiyalarga ega. Bu funktsiyalar mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarida belgilab berilgan.

Ushbu tuzilmalarning tashkil etilishi xodimlar bilan ishlashda bank tizimini yanada isloh etish hamda tijorat banklarini hududiy bo'linmalari oldiga qo'yiladigan vazifalarini amalga oshirishda mosligini ko'rsatmoqda.

1.2 Tijorat banklarining faoliyati va bank xizmatlari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.

Tijorat banklarining faoliyati va bank xizmatlari xususida iqtisodchilimlar tomonidan xilma-xil fikrlar bildirilgan, ilmiy-nazariy xulosalarga shakllantirilgan.

O.Lavrushin tahriri ostida chop etilgan "Bank ishi" darsligida mamlakat bank tizimini qayta tarkiblashda asosiy e'tibor xususiy banklar faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilishi kerak, degan fikr bildirilgan. Shu sababli, O.Lavrushin xususiy banklar ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan talablar aksiyadorlik-tijorat banklarinikiga qaraganda past bo'lishi lozim, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, Rossiyada ijro intizomi yomon bo'lganligi sababli 1994 yilning dastlabki 5 oyi mobaynida 154 ta xususiy bank yopildi³.

Shuningdek, O.I.Lavrushin tijorat banklari aktivlarining tarkibi va dinamikasini ham tadqiq qilgan. Bank aktivlarini tarkibi bevosita uli daromadiga bog'liqdir. O.Lavrushinning tahlillari natijalari ko'rsatdiki, banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar Fransiya tijorat banklarida 16,2

³ Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. - М.: КноРус, 2008. - С. 73-74.

foizni, Germaniyada-15,5 %, Italiyada-23,8 %, Buyuk Britaniyada-7,8 %, Ispaniyada- 23,8 %, AQSHda-2,2 %, Belgiyada-6,4 %, Yaponiyada-10,2 foizni tashkil qiladi⁴. Demak, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning yuqori salmogi Ispaniya va Italiyada kuzatiladi. Nisbatan juda past salmoq Belgiya, Buyuk Britaniya tijorat banklariga xosdir.

Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan qo'yilmalarning bank aktivlari umumiy hajmidagi salmog'i Ispaniya tijorat banklarida 10,2 foizni, Fransiya tijorat banklarida 9,4 foizni, Italiya tijorat banklarida 5,3 foizni, AQSH tijorat banklarida esa, 18 foizni tashkil etadi. Veksellar bilan boglik operatsiyalarning yuqori salmogi Ispaniya (12,8%), Italiya (5,8%) Belgiya (4,7%), tijorat banklarida kuzatiladi. Hissali ishtirok shaklidagi investitsiyalarning bank aktivlari xajmidagi yuqori salmogi Germaniya tijorat banklarida kuzatiladi (4,0%)⁵.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan bank investitsiyalarini yuqorisalmoqqa ega ekanligining asosiy sabablari, O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, quyidagilardan iboratdir:

a) Hukumatning qimmatliqog'ozlari yuqori likvidlilik xususiyatiga ega. Chunki ularga nisbatan qimmatliqog'ozlar bozorida doimiy xarakterga ega bo'lgan barqaror talab mavjud. Bu esa hukumatning qimmatli qog'ozlari hisobidan tijorat banklarining likvidliligini ta'minlash imkonini beradi.

b) Hukumatning qimmatliqog'ozlari qat'iy belgilangan foizda bankka daromad keltiradi. Demak, ular bankning foizli daromadlari xajmini oshirish imkonini beradi bu esa, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartidir.

⁴ Лаврушин О.И. Банковское дело.-М.: Финансы и статистика, 2002. - С. 94.

⁵ Zantov M. Kredit Policy.- RBTC, Tashkent, 1998. - P. 18.

v) Hukumatning qimmatliqog'ozlari yirik miqdorda emissiya qilingan. Masalan, AQSH va Germaniya davlatlarida qimmatliqog'ozlarning emitentlari tarkibida hukumat, emissiya miqdoriga ko'ra, birinchi o'rinni egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, hukumatning qimmatliqog'ozlarini sotishdan olingan tushum davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishning noinflyatsion usuli hisoblanadi.

K.Dzobek va V.Vossenning «Reformirovaniye bankovskogo sektora» («Transformatsiya finansovix sistem v stranax Baltiki, Rossii va drugix stran bo'vshego Sovetskogo soyuza», MVF, 1998) nomli ishida bankni tezkor qayta tarkiblash chora-tadbirlari sifatida yangi kreditlarning berilishiga chegaralarni o'rnatish, banklarni berilgan ssudalarning qaytarilishiga nisbatan ancha agressiv siyosat yuritishga majbur etish, beriladigan ssudalar uchun tegishli ta'minotni yaratish va bankning ichki operatsiyalarini tartibga solishni joriy etish orqali xususiy tijorat banklari operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Ayrim holatlarda tezkor qayta tarkiblash bankning ishlab turgan aktivlarini ishlamayotgan aktivlarga qo'shish yoki ularni bir biridan ajratish shaklida amalga oshirilishi mumkin. K.Dzobek va V.Vossenning fikriga ko'ra, moliyaviy tarkibiy o'zgartirishga bankni rekapitalizatsiyalashni amalga oshirish misol bo'ladi. Bankni tarkibiy o'zgartirishni amalga oshirish siyosati ularning tasdiqlashicha quyidagi aspektlarga asoslanadi: (1) bank sektoridagi muammolarni diagnostika qilishni tugallash; (2) qayta tarkiblash strategiyasini ishlab chiqish; (3) institutsional tuzilmalarni tashkil etish.

O.I.Lavrushin tomonidan muddatli depozitlar va jamgarma omonatlar bo'yicha e'tirof etilgan xususiyatlarga kushilgan qolda, yana bir qator xususiyatlarning mavjudligini qayd etmoqchimiz. Jumladan:

- naqd pullarning banklardan tashqari aylanmasini qisqartirish imkonini beradi;

- tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlar uchun garov ta'minoti vazifasini bajarishi mumkin, buning natijasida kredit qo'yilmalari hajmi oshadi, kredit riski ma'lum darajada kamayadi.

Prof. V.M.Usoskinning fikriga ko'ra, transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish tijorat banklarining likvidliligiga jiddiy ziyon yetkazadi. Shu sababli, Glass-Stigoll konuniga asosan 1933 yilda transaksion depozitlarga foiz to'lashning ta'qiqlanishi oqilona tadbir qisoblanadi. Lekin muddatli va jamg'arma depozit hisobraqamlariga tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foiz stavkalarining yuqori chegarasining belgilanishi tijorat banklarining depozit bazasiga salbiy ta'sir kiladi. Fikrimizcha, V.M.Usoskinning transaksion depozitlardan tijorat banklari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri resurs sifatida foydalanishning maqsadga muvofiq emasligi xususidagi ilmiy xulosasi hozirgi davrda ham o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Xususan, respublikamiz tijorat banklarida transaksion depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni muddatli depozit shartnomasi tuzmasdan turib, resurs sifatida foydalanish xollari mavjud. Buning natijasida tijorat banklarining faoliyatidagi likvidlilik va kredit riski kuchaymoqda. Chunki transaksion depozit nobarqaror passiv hisoblanadi va shu sababli istalgan vaqtda hisobraqam egasi tomonidan talab qilib olinishi mumkin. Kredit esa, muddatli bo'lib, uni muddatidan oldin qaytarib olish mumkin emas. Bundan tashqari, transaksion depozitlardan resurs sifatida foydalanish tijorat banklarining depozit bazasini mustaxkamlashdan bo'lgan manfaatdorligiga salbiy ta'sir qiladi⁶.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standart va uning takomillashtirilgan varianti bo'lgan Bazel-II da tijorat banklari kapitali tarkibini shakllantirishga bevosita ta'sir qiluvchi talablar mavjud. Bu esa, mazkur talablarning tijorat banklari kapital bazasiga ta'siri masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

⁶ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. - М.: ИПЦ «Вазар-Ферро», 1994. - С. 106-109.

Xalqaro Bazel standarti bo'yicha tijorat banklarining asosiy kapitali barqaror moliyalashtirish manbalaridan tashkil topishi lozim. Shu sababli, Bazel qo'mitasining talabiga ko'ra asosiy kapitalning tarkibiga quyidagi manbalargina kiritilishi lozim:

- ustav kapitalining to'langan qismi;
- bankning emission daromadi;
- zahira kapitali;
- o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi;
- bankning nokumulyativ imtiyozli aksiyalarini sotishdan olingan tushum.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida banklarning asosiy kapitalini yetarli darajada shakllantirishda muammolarning mavjudligi (moliya bozorlarining rivojlanmaganligi natijasida tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning fond birjasida kotirovka qilinmasligi, bank aktivlari daromadlilik darajasining pastligi tufayli sof foyda va taqsimlanmagan foyda miqdorining kamligi, tijorat banklari aksiyalariga to'lanayotgan dividendlar darajasining pastligi va xk.) tijorat banklari kapitalini shakllantirishda beqaror moliyalashtirish manbalaridan ham foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Xususan, ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida devalvatsiya zahirasi tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibiga kiritilmoqda. Holbuki devalvatsiya zahirasi beqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Ushbu zahira milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrsizlanishi natijasida tijorat banklarining ustav kapitaliga qo'yilgan xorijiy valyutadagi mablaglar hisobidan shakllanadi.

Xalqaro Bazel standartida tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligiga nisbatan belgilangan minimal talab 8% qilib belgilangan. Xalqaro ta'mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, ushbu minimal talab 15 % darajasida bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank tomonidan tijorat banklari kapitalining yetarliligiga nisbatan belgilangan

minimal talab 10% qilib belgilangan. Xalqaro hisob-kitoblar banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra tijorat banklari kapitalining yetarliligining minimal darajasi 10 foizni tashkil etishi lozim. Ko'rinib turibdiki, tijorat banklari umumiy kapitalining yetarliligiga nisbatan minimal talabni o'rnatish borasida xam turli xil yondoshishlar mavjud.

Prof. V.Usoskin amaldagi 8 foizli kapitalning adekvatlilik ko'effitsiyentini mo'tadil ko'rsatkich deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, yangi ko'effitsiyentni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq emas⁷.

Bizning fikrimizcha, yangi 12 foizli ko'effitsiyentni rivojlanayotgan mamlakatlarning bank nazorati tizimida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning boisi shundaki ushbu mamlakatlar tijorat banklarining balansida yuqori likvidli aktivlarning yetishmasligi muammosi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Prof. A.Simanovskiyning fikriga ko'ra, Bazel qo'mitasi tomonidan taklif qilingan kredit riskini baholashning yangi tartibini qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki kredit riskining tabiiy darajasi 100 foizni tashkil qiladi⁸.

Bazel qo'mitasining kredit riskini baholashning yangi tartibiga ko'ra, kredit riskining maksimal darajasi 150 foizni tashkil qiladi. A.Simanovskiyning fikriga ko'ra, kreditning yuqori darajada riskka tortilishi kapitalning adekvatlilik darajasini sun'iy darajada oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatning va mijozning kredit reytingiga bog'lik ravishda kredit riskini 150 foizgacha darajada baxolash kredit reytingi nisbatan past bo'lgan mamlakatlarning xatto to'lovga qobilligi yuqori bo'lgan mijozlarining kredit olish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Uerta de Soto o'zining ilmiy izlanishlarida banklarning kredit emissiyasini tartibga solish masalasini chuqur tadqiq qilgan. Uning "Pullar, bank krediti va iqtisodiy sikllar" nomli monografiyasida banklarning kredit

⁷ Усоскин В. Современный коммерческий банк: управление и операции.-Москва: Вазар-Ферро, 1994.-с. 93

⁸ Симановский А. Достаточность банковского капитала: новые подходы и перспективу их реализации // Деньги и кредит, 2000, №6.-с. 25.

emissiyasini pul muomalasiga va iqtisodiyotga ta'siri ochib berilgan va uni tartibga solish bo'yicha bir qator ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar berilgan. Jumladan, Uerta de Sotoning xulosasiga ko'ra, tijorat banklarining investitsion kreditlari mijozlarning ixtiyoriy jamgarmalari asosida berilsagina kredit emissiyasi iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ixtiyoriy jamgarmalarning o'sgan qismi ishlab chiqarishga kredit orqali investitsiya qilinadi. Ushbu kreditlar real ixtiyoriy jamgarmalar bilan ta'minlangan bo'lib, ishlab chiqarish vositalariga va kapital ne'matlarga bo'lgan pullik talabni oshishiga olib keladi⁹.

Prof. A.Vaxabov tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash orqali ularning kredit qo'yilmalari hajmini, shu jumladan, investitsion kreditlar berish hajmini oshirish taklifini asoslab bergan¹⁰.

T.Bobaqulovning fikriga ko'ra, O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida monetizatsiya darajasining past ekanligi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik muammosini chuqurlashtiradi. Bu esa, ularning pul oqimini zaiflashuviga olib keladi va tijoratbanklarining kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qiladi¹¹.

D.Saidov tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqqan :

1. Kredit siyosatida kreditlarni joylashtirish jarayonida tarmok limitlarini o'rnatish.

2. Respublikamiz tijorat banklarining, shu jumladan, XATB "DAVR BANK" kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirish lozim.

Agar tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta tarmoqqa mansub bo'lgan korxonalarda to'planishi yuz bersa, u xolda bu bankning kredit

⁹ Уэрта де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. - Челябинск: Социум, 2008. - С. 244-245.

¹⁰ Вахабов А.В. Уз. Рес.ТБларининг ликвидлиги ва туловга қобиллигини оширишда капиталлашининг урни//“Банк тизимини такомиллаштириш ва ТБлари инвестицион фаоллигини ошириш”. - Тошкент: Молия, 2009. - Б. 34-35.

¹¹ Бобақулов Т.И. Ўзбекистон Республикасида миллий валюта курсининг барқарорлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларни ҳал қилиш йуллари. И.ф.д. илм. дар.ол. уч. такд. эт. дисс. автореф. - Тошкент, 2008. - Б. 13

portfelining diversifikatsiya darajasi past ekanligidan, bank faoliyatidagi kredit riskining kuchayganligidan dalolat beradi.

3. Tijorat banklari kredit bo'linmalari xodimlarining korxonalar moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish borasidagi bilimi va tajribalarini oshirish choralari ko'rish lozim.

Bank xodimlarining moliyaviy tahlil sohasida chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini to'g'ri baxolashda muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki moliyaviy ko'rsatkichlarni xam, mijozlarning pul oqimini xam to'g'ri hisoblash moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga bog'liqdir.

Sh.Abdullayeva tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin, deb hisoblaydi.

O.Abdusalomova Respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish bilan bog'lik bo'lgan quyidagi muammolarning mavjudligini aniqlagan:

- banklarda undirish muddati kelgan faktoring qoldiqdari o'z navbatida muddati o'tgan faktoring operatsiyalari hisobraqamlariga aks ettirilmagan va o'z vaqtida tasniflanmagan. Faktoring amaliyotlarini amalga oshirishda mijozdan oldi-sotdi shartnomalari, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lov talabnomalari talab qilib olinmaganligi;

- kredit shartnomalarida kredit qancha muddatga va qaysi maqsadga berilganligi ko'rsatilmagan.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, tijorat banklari faoliyatining barqarorligi ular resurs bazasining barqarorligiga bog'lik; ikkinchidan, aktivlarni joylashtirishda ularning daromadlilik va likvidlilik darajalari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlangan bo'lishi kerak; uchinchidan, banklarning

kapitallashuv darajasining yetarliligi ular faoliyatini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

1.3 Tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirishda yangi bank xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini raqobatbardoshligini oshirish dolzarb vazifadir. Bu maqsadga yerishish uchun tijorat banklari tomonidan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Zamonaviy bank tizimi yetarli darajada mablag'lar bilan ta'minlangan bo'lib milliy iqtisodiyotni jadal rivojlanishiga o'z o'rniga ega bo'lishi uchun yangi mijozlarni jalb qilishi muhimdir. Hozirgi kunda barqaror bank tizimini rivojlanishi ko'proq uni mos ravishda modernizatsiyalash iqtisodiyot va mijozlarni talablariga javob beradigan samarali hamda sifatli xizmatlarni joriy etishni talab etadi. Bunday modellar bank sohasida qo'llaniladigan innovatsiyalarni ko'zda tutadi. Bugungi kunda tijorat banklari amaliyotida innovatsion bank mahsulotlarining bir qancha turlari mavjud. Ularga misol tariqasida "Internet-banking", "Mobil-banking", "Sms-banking" va "Telegram - bot" tizimlari keltirish mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib, mijozlardan jalb etilgan muddatli va jamgarma depozitlari hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, kapital tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan qimmat shakli hisoblanadi; ikkinchidan, tijorat banklari, faoliyatining mohiyatiga ko'ra, aholi va korxonalarning vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini depozit hisobraqamlariga jalb qilish va ularni kreditlar, investitsiyalar shaklida joylashtirish bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari hisoblanadi; uchinchidan, banklararo kreditlar nisbatan qimmat moliyaviy resurs hisoblanadi, shu sababli, undan aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishda foydalanish tijorat banklari foizli xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi; to'rtinchidan, tijorat banklari transaksion depozitlardan to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni muddatli depozit shartnomasi

tuzmasdan turib foydalanishga haqli emas. Shu bilan bir qatorda shu xizmatlari ko'rsatish uchun banklar o'z xizmatlarida innavatsion yondashishga harakat qilganlar. Shu harakatlar natijasida mijozlarni bankga jalb etish orqarli bank passivlarini ko'paytirish imkoniyatini beradi.

1-jadval

Home Credit Bankini resurs bazasining tarkibi¹² 2014-2016.

Nomi	2014	2015	2016
Xususiy kapital, ming rubl.	10921790	32 400 618	47 981 912
O'z mablag'lari (kapital),%	17,3 %	13,1 %	9,8 %
Pul mablag'larini jalb qilish (kreditlar, depozitlar, mijozlar hisoblari va boshqalar), ming rubl.	52216816	215 468264	441822 055
Qabul qilingan mablag'lar (kreditlar, depozitlar, mijozlar hisoblari va boshqalar),%	82,7 %	86,9 %	90,2 %
Jami	63138606	247868882	489803967

1 -jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Home Credit tijorat banki resurslarining umumiy hajmida muddatli va jamgarma depozitlari yuqori salmoqdi egallaydi. Bu esa, tijorat banklarining moliyaviy vositachilik vazifasini bajaruvchi kredit muassasasi ekanligi bilan izohlanadi

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Home Credit tijorat banklari resurslarining hajmida qisqa muddatli depozitlarning salmogi o'rta va uzoq muddatli depozitlarning salmogiga nisbatan yuqoridir. Bu esa, universal tijorat banklarining kredit portfelida qisqa muddatli kreditlar salmogining yuqori ekanligi bilan izohlanadi

¹² www.homecredit.ru sayti ma'lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi.

1 - jadvalma'lumotlaridan ko'rinadiki, banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida olingan pul mablaglari resurslarning umumiy hajmida sezilarli salmoqni egallaydi. Ushbu resurslar asosan banklarning uzoq muddatli operatsiyalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Muddatli va jamgarma depozitlari tijorat banklari faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai hisoblanadi. "SMS Banking" xizmati hisoblangan foizlar haqida deposit egasi ya'ni mijozga xabar yetqazib turadi. Odatda, ularning asosiy qismi muddati tugagunga qadar mijoz tomonidan talab qilib olinmaydi va hisoblangan foizlar bilan birga oladi. Agar mijoz muddatli yoki jamgarma depozitni muddatidan oldin talab qilib oladigan bo'lsa, unga to'lanadigan foiz miqdori keskin kamayadi..Ya'ni, mijoz depozitdan oladigan daromadining sezilarli qismidan mahrum bo'ladi.Bu esa, mijozni muddatli yoki jamgarma depozitni muddatidan oldin talab qilib olmaslikka undaydi. Muddatli va jamgarma depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalarining darajasi va barqarorligi ularni jalb qilishda muhim o'rin tutadi. Odatda, muddatli va jamgarma depozitlarining foiz stavkalarini belgilashda ular hukumat qimmatli qog'ozlarining foiz stavkalari bilan taqqoslanadi.

Keltirilgan ma'lumotlardan banklararo kreditlarning resurslar hajmidagi salmogini past ekanligi ko'rinib turibdi. Buning sababi shundaki, banklararo kreditlar bahosi yuqori bo'lgan resurs bo'lganligi sababli ulardan foydalanish tijorat banklarining foizli xarajatlari hajmining oshishiga olib keladi. Buning ustiga, depozit bazasi yetarli bo'lgan tijorat banklari banklararo kreditlardan resurs sifatida foydalanishga ehtiyoj sezmaydi. Tijorat banklari resurslarining umumiy hajmida muddatli va jamgarma depozitlari yuqori salmoqdi egallaydi. Bu esa, tijorat banklarining moliyaviy vositachilik vazifasini bajaruvchi kredit muassasasi ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Tijorat banklari resurslarining hajmida qisqa muddatli depozitlarning salmogi o'rta va uzoq muddatli depozitlarning salmogiga nisbatan yuqoridir. Bu esa, universal tijorat banklarining kredit portfelida qisqa muddatli kreditlar salmog'ining yuqori

ekanligi bilan izohlanadi.

Home Credit tijorat banki resurslarining tarkibida qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan mablaglar va umumiy kapital yuqori salmoqni egallaydi. Ammo qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan mablaglarning jami resurslardagi salmog'i xususiy kapital tarkibida bo'lgani sababli hammasi hamma ko'rsatkichlar kabi o'sganligini ko'rishimiz mumkin .

Shuningdek, jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2016 yilda Home Credit tijorat banki umumiy kapitalining jami resurslardagi salmog'i oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, global moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida banklarning kapitallashish darajasini oshirish siyosatining olib borilganligi bilan izohlanadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tijorat banklarining uzoq muddatli resurslarini yetishmasligi muammosi mavjudligini kuzatish mumkin. Bu esa, ularning uzoq muddatli resurs bazasining mustahkamlash borasida yechimini topmagan muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu muammoning mavjudligi mazkur mamlakatlar tijorat banklari depozitlarining umumiy hajmida transaksion depozitlarning salmogini yuqori ekanligida yaqqol namoyon bo'ladi. Transaksion depozitlar esa, muddatsiz va beqaror passivlar hisoblanadi. Lekin ma'lum bir muddatga mablag' jalb qilish va likvidligini oshirish uchun "Internet banking" va "Mobile banking" xizmatlarini o'z mijozlariga ko'rsatish orqali mablag'lari oshirish imkoniyatini beradi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tijorat banklari tomonidan transaksion depozitlardan resurs sifatida to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni muddatli depozit shartnomasini tuzmasdan foydalanilishi ularning depozit bazasi mustahkamligiga salbiy ta'sir kiladi, likvidlik riskining kuchayishiga xizmat kiladi. Buning sababi shundaki, transaksion depozit beqarorlik darajasi juda yuqori bo'lgan passiv hisoblanadi. U istalgan vaqtda mijoz tomonidan talab qilib olinishi mumkin. Shuning uchun xam rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida transaksion depozitlar tijorat banki uchun resurs manbai

hisoblanmaydi va ularga foiz to'lanmaydi. Bank xodimlari tomonidan to'g'ri qabul qilingan qaror orqali bu xavflarni kamaytirib vaqtinchali jalb qilingan mablag'lar orqali daromad ko'rish imkoniyatini beradi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida moliya bozorlarining rivojlanmaganligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan resurslar jalb qilish imkoniyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, inflyatsiya darajasining yuqori va beqaror ekanligi, milliy valyuta almashuv kursining beqarorligi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar real qiymatining pasayish xavfini yuzaga keltiradi.

Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaydi. Ular tomonidan olingan plastik kartalardagi mablag'larni maxsus "Mobile banking" ilovalari orqali boshqarilishi imkoniyati kengdir, O'zbekiston banklarini mijozlari jismoniy shaxslarga xuddi shunday ilovalarni ko'lamini kengaytgan tijorat banklarida mablag'larni oshishiga olib keldi. Olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning depozitlariga(jumladan talab qilib olungingacha) nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbai hisoblanadi. Lekin O'zbekiston tijorat banklari misolida ko'radigan bo'lsak yuridik shaxslardan jalb qilingan mablag'lar arzon hisoblanadi. Chunki bankga bo'gan ishonch jismoniy shaxslarda ishonchsizlik kayfiyati mavjud.

Jahon moliya inqirozi natijasida dunyoning qator mamlakatlarida ko'plab tijorat banklarining bankrot bo'lganligi yoki likvidlilik riskiga duchor bo'lib tang ahvolga tushib qolganligi, yirik miqdorlarda zarar ko'rganligi tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish amaliyotida jiddiy kamchiliklar va muammolarning mavjudligini ko'rsatdi. 2007 yilning o'zida dunyo bo'yicha tijorat banklari 1 trln. AQSh dollari miqdoridagi muammoli kreditlarni balansidan chiqardilar. Buning natijasida tijorat banklari yirik miqdorda zarar

kurishdi. Birgina AQSh tijorat banklari 678 mlrd. AQSh dollari, Yevropa Ittifoqi tijorat banklari esa, 300 mlrd. AQSh dollari miqdorida zarar ko'rishdi. 2008 yil yanvar-avgust oylarida AQSHda 12 ta bank bankrot bo'ldi.

Tijorat banklari faoliyatining zarar bilan yakunlanganligi ular qimmatli qog'ozlarining, shu jumladan, aksiyalarining bozor baholarining pasayishiga olib keldi.

Natijada, banklarning kapitallashuv darajasining sezilarli darajada pasayishi yuz berdi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklarining to'lovga qobillik darajasining pasayishiga olib keldi. Chunki tijorat banklarining to'lovga qobillik darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri ular kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Holbuki, AQSH va G'arbiy Yevropa tijorat bank ishi yuqori darajada rivojlangan markazlar hisoblanadi. Aynan dunyoga mashxur Xalqaro Bazel qo'mitasining talablari ham dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlarining bank amaliyotiga 1993 yilda qo'llanilgan va keyinchalik 150 dan ortiq mamlakatlarda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish tizimining uslubiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro bank amaliyotida eng mukammal hisoblangan Bazel standarti talablarini to'liq bajargan tijorat banklari ham Jahon moliya inqirozi natijasida bankrotlik yoqasiga kelib qolishdi. Bu esa, o'z navbatida, bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel standarti talablarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shunday qiyinchiliklar paytida tijorat banklarining innovatsion faoliyati bank mahsulotlarining daromadliligi, raqobatbardoshligi, aktivlar sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan xamda ijobiy natija beradigan rag'batlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham bank hisob raqamlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari - ya'ni mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankga kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalari mijozlarni jalb qilish va bank faoliyatini rivojlantirishda muhimdir.

I bob boyicha xulosalar

Innovatsion bank xizmatlari mijozlarni yan'i xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va jismoniy shaxslarning bank bilan o'zaro aloqalarini yengillashtirish bilan izohlanadi. Mamlakatdagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va jismoniy shaxslarning innovatsion bank xizmatlari to'g'risidagi salohiyatining shakllanishi va rivojlanishida innovatsion marketing texnologiyalarining roli juda katta. Innovatsion marketing strategiyasini tushunishda yangicha yondashuv innovatsion mahsulotni izlab topishga, biznes-muhitda innovatsiyalar mavjudligiga emas, balki u yoki bu innovatsion ishlanmadan foydalanishni soddalashtirishga asoslanadi.

Xalqaro bank amaliyotida eng mukammal standart talablarini to'liq bajargan holda tijorat banklarining bank xizmatlarini bankning xavsizlik nazorati bo'yicha standarti talablarini qayta ko'rib chiqib yangiliklarni amaliyotga tadbiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSH, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallashi haqida yuqorida aytib o'tildi. Shu bois innovatsion bank xizmatini rivojlantirish nafaqat korporativ mijozlar balki jismoniy shaxslarning depositlarini jalb qilishga olib kelishini yuzaga keltiradi.

Bu esa o'z o'rnida, tijorat bankining innovatsion ishlanmaning dinamik sur'atlar bilan rivojlanayotgan bank xizmatlari bozoriga muvofiqligi, yaratilayotgan innovatsion bank mahsulotiga yangi ehtiyojlarni shakllantirish, bank xizmatlarini taqdim etishda qo'llanayotgan usullari va mijozlar talablarining bir-biri bilan bog'liqligi kabi ko'rsatkichlar jalb qilinmoqda. Bank tizimida innovatsiyalarni joriy qilish sur'atlari, ularning chegaralari bozor ehtiyojlari va tijorat banklarining manfaatlari bilan emas, balki mamlakat xavfsizligi, uning aholisi uchun keltiradigan qulayliklar bilan belgilanishi lozim.

2-BOB. TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA YANGI BANK XIZMATLARINI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH TAHLILI.

2.1 Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion bank xizmatlarining tahlili.

Innovatsion bank xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotda hamda moliyaviy xizmatlar bozorida nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Chunki mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatiladi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir. Asosan kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisobqaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverda joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;

- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish

kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi, pul o'tkazmalarini tayyorlab bankga uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratilgan. U hamda MBANK kabi ilovalar orqali ishlatiladi. Har bir moliya kredit tashkiloti yani banklar o'z mijozlariga o'zlarini logotiplari ostidagi ilovalar ishlab chiqadilar va o'z mijozlariga xizmat ko'rsatadilar. Ushbu dastur (ilova) Android va iOS platformalarida ishlaydigan mobil telefonlar uchun mobil ilovadir.

Ularda:

- Xabarlar va bildirishnomalarni shakllantirish;
- Elektron hisob-kitob hujjatlarini tayyorlash;
- To'lov topshiriqlarini jo'natish;
- Hisobni boshqarish kabi xizmatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ushbu xizmat turi iOS yoki Android operatsion tizimlaridan foydalanuvchi mobil telefon foydalanuvchilari uchun mavjud bo'lib bu ilovalar doimiy ravishda yengilanib boriladi.


SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda plastik kartalarga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Ilgari hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak bo'lgan. Hozir kunda hisobraqamdagi operatsiyalar haqida malumot avtomat ravishda SMS habar ulangan abonent raqamiga keladi.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraqlar balansi;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish imkoniyatini beradi.
-

2-jadval


Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 1-yanvar 2017 yil holatiga¹³



Jadvaldan ko'rinib turibdiki masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlaridan foydalanish 2011 - yilda 24 545 dona bo'lgan bo'lsa 2014 yilda 534 800 ta mijoz bu xizmatlardan foydalangan. 2015 - yildan boshlab bu ko'rsatkichlar yiliga ikki barobardan o'sish bo'shlangan. 2017 - yil 2 042 111 dona mijoz masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan shu jumladan Internet bank, Mobil-bank hamda SMS-bank .

¹³ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi

**Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni
(turlari bo'yicha) 1-yanvar 2017 yil holatiga¹⁴**



Jadvaldan ko'rinib turibdiki masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlaridan foydalanish turlari bo'yichga 2011 - yilda 14 241 ta Internet banking va 10 304 tani tashkil qilgan.

"Internet banking" xizmati mijozlarga onlayn-to'lov shaklida bank xizmatlari uchun, soliq, davlat bojlari uchun hamda boshq to'lovlarni bank binosiga kelmagan holda, masofadan turib amalga oshirish imkonini bergani uchun bank mijozlari tomonidan foydalanib kelmoqda. Yildan yilga yengiliklarni joriy etish hamda qulayliklar yaratish natijasida banklar tomonidan mijozlarga zamonaviy bank xizmati turlaridan biri hisoblangan «Internet-banking» elektron to'lov tizimi bilan tanishishni va undan foydalanishni taklif etadi. Buning uchun banklarning saytida hamda bank filiallari mijozlar bilan ishlash bo'limida «Internet-banking» tizimga ulab mijozlarga tushintilish ishlari olib bo'riladi. Bu tizm kompyuter dasturiy tizimi bo'lib, u mijozga ofisdan (uydan) chiqmagan holda, kommunikatsiya aloqa kanallaridan (internet) foydalanish natijasida, o'zining bank hisobraqamini boshqarish va nazorat qilishda keng imkoniyatlarni yaratadi.

XATB "Davr Bank" o'z mijozlari bilan hamkorlik qilishni istaydi va ularga

¹⁴ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida mualif tomondan tayyorlandi

quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Jahon andozalariga mos bank xizmat turlaridan foydalanish;
- Biznes faoliyatingizni tezkor boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish;
- Bank hisobraqamini holati haqida to'liq va tezkor ma'lumotga ega bo'lish;
- Faoliyat natijalarini doimo kuzatib borish va tahlil qilish;
- Vaqt va moddiy resurslaringizni tejash.

«Internet-banking» dasturiy tizimi mijozga quyidagi qulayliklarni yaratadi:

- Ofisdan chiqmasdan to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati evaziga vaqt va mablag'ni tejash;
- Real vaqt sharoitida to'lovlarni amalga oshirish;
- Hisob raqamning holati to'grisida batafsil ma'lumot olish;
- Bankdan har qanday uzoqlig'dan qat'iy nazar, doimo hisob raqam haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

Tadbirkorlik sub'ektlar masofadan xizmat ko'rsatish "Internet-banking" tizimidan foydalanish bo'yicha bosqichma-bosqich harakatlar mavjud ular:

1. "Internet-banking" tizimiga boglanish uchun mijozda quyidagi minimal texnik-dasturiy vositalar bo'lishi talab e'tiladi:

- personal kompyuter, noutbuk, ultrabuk;
- "Windows XP, 7 , 8.1 " operatsion tizim versiyalari;
- "Internet" aloqasi.

2."Internet-banking" tizimi ulanish uchun mijoz o'ziga xizmat qiluvchi bankning filialiga murojaat qiladi.

3. Mijozlarga "Internet-banking" tizimini o'rnatish uchun ikki tomonlama shartnoma rasmiylashtiriladi.

4. O'z navbatida bank filiali tomonidan mijozning identifikatlari asosida

tayyorlangan elektron raqamli imzo kaliti mijozga belgilangan tartib asosida beriladi.

5. Mazkur dasturni ishga tushirish uchun zarur bo'ladigan uskunalar (kompyuter, modem va boshqalar), aloqa kanali va xarajatlari mijoz hisobidan amalga oshiriladi.

6. Tizimni o'rnatish va ishga tushirish bank xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

7. "Internet-banking" tizimidan foydalanadigan mijozdan aloqa kanali orqali olingan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan elektron to'lov topshiriqnomasi dasturiy nazoratdan o'tkazadi va bank amaliyot kuniga qayta ishlash uchun uzatadi.

8. "Internet-banking" tizimi orqali uzatilgan elektron to'lov topshiriqnomasining qog'oz shaklidagi asl nusxasi bankka taqdim etilmaydi va o'rnatilgan tartibda mijozda saqlanadi. Bunda, to'lov topshiriqnomasining elektron va qog'ozdagi shaklining to'g'ri rasmiylashtirilganligi hamda ularning o'zaro mosligi bo'yicha javobgarlik mijoz zimmasiga yuklatiladi.

9. "Internet-banking" tizimi orqali elektron to'lov hujjati tushgan kunda, agar u bankning amaliyot kuni mobaynida tushgan bo'lsa, shu kuni o'tkaziladi. Elektron to'lov hujjati bankning amaliyot kuni tugaganidan keyin tushgan taqdirda, elektron to'lov keyingi bank ish kunidan kechiktirmay o'tkaziladi.

10. "Internet-banking" tizimi orqali mijozlarga ko'rsatilgan bank xizmati uchun komission to'lovlar bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

Umuman Internet-banking - bu mijozning bank hisob raqamlarini bankka tashrif buyurmasdan boshqarish imkonini beruvchi xizmatdir. Ushbu xizmat vaqtni tejash va ish joyidan to'lovlarni jo'natmoqchi bo'lgan mijozlar uchun mo'ljallangan.

"Internet-banking" tizimi bilan, bank mijozlari o'z hisoblarini dunyoning

har qanday burchagidan boshqarishi mumkin. Har bir bank o'ziga xos "Internet-banking" tizmini taklif qiladi. XATB "DAVR BANK" o'z mijozlari - yuridik shaxslarga ushbu imkoniyatni taqdim etadi va bu tizimni rivojlantirish uchun doimiy ravishda tizimga yangiliklar kiritib boradi. "Internet-banking" tizimi Internet texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan. U bilan ishlash uchun mijozlar faqatgina Internetga kirishlari kerak. XATB "DAVR BANK" o'z mijozlariga taklif qilayotgan ushbu tizim bilan bank mijozlari quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- Mijoz hisobidan biron-bir bankda boshqa hisobga pul o'tkazish;
- Mijozning hisobvaraqlaridagi harakatlar to'g'risida ma'lumot olish;
- O'tmagan to'lovni sababini tizm o'zidan habardor bo'lish;
- Hisob ma'lumotlarini olish;
- Mijozning hisobida qoldiqlarini kuzatib borish;
- Bankka yuborilgan to'lov hujjatlari arxivini saqlash;
- Hisobdagi mablag'larning holati va harakati to'g'risida hisobotlarni olish;
- Kommunal to'lovlarni amalga oshirish (elektr, gaz, telefon, issiqlik va boshqalar);
- Aloqa uchun to'lovlar (IP-telefoniya, uyali aloqa va peygama, internet) va boshqa xizmatlar uchun to'lovlar;

Internet-bankingning afzalliklari:

Foydalanish qulayligi - Internet orqali hisobingizni boshqarish uchun maxsus bilim yoki malakaga ega bo'lishga hojat yo'q;

Samaradorlik - mijoz va bank o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar real vaqtda amalga oshiriladi. Mijozning kompyuteridan bankdagi to'lov hujjatlarini barcha bosqichlarini kuzatib borishi mumkin. To'lovlar haqidagi ma'lumot bankka kelishi bilan kuniga bir necha marta yangilanadi;

Qulaylik Internet-banking xizmatiga ulanishning soddalashtirilgan usulidir (faqat XATB "DAVR BANK"da bank hisobvaragiga ega bo'lish, "Internet-banking tizimida xizmat ko'rsatish to'g'risida" va elektron kalit). Internet-banking tizimiga bog'liq bo'ladimi-yo'qligidan qat'iy nazar har qanday kontragentga to'lovlarni olish va to'lash qobiliyati. To'lov buyurtmalarini to'ldirishda xatolardan qo'rqmaslik ehtimoli. Tizim hujjat to'ldirishning to'g'riligini diqqat bilan kuzatib boradi va xatolarni ko'rsatadi;

Maxfiylik - uzatilgan axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish xalqaro kriptografiya formatining SSL protokoli yordamida shifrlash orqali ta'minlanadi. Aloqa beruvchi shaxslar elektron raqamli imzodan foydalanadilar (EDS); Identifikatsiya tizimi operatsiyani amalga oshiruvchi tomonlarning haqiqiyligini kafolatlaydi;

Nazorat qilish imkoniyati - elektron hujjat aylanishining barcha bosqichlari hujjatlashtirilgan (amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisobotlar, hisob varaqlari, tushumlar, tasdiqlangan to'lovlar va boshqa hujjatlar). Tomonlarning ERI tomonidan tasdiqlangan elektron hujjatlari taraflarning imzosi va mohir tomonidan tasdiqlangan qog'oz hujjatlariga muvofiq qonuniy kuchga ega.

Tijorat banklari mijozlar bitimlarining maxfiyligini kafolatlaydi. Iste'molchilar maxsus elektron kalit yordamida tizimga ulangan. Qayta ulangan mijozlarga tizim bilan ishlash uchun bepul ta'lim beriladi.

Ushbu xizmat yordamida dunyoning istalgan nuqtasida Internet orqali mijozlar mijozlarning hisobvaraqlarida to'lov hujjatlari harakatini boshqarish va monitoring qilish, shuningdek quyidagi ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi:

- Hisobdagi harakatlar va fond balansi;
- Kredit shartnomalari bo'yicha ma'lumot;
- Eksport-import shartnomalari, shuningdek ular bo'yicha operatsiyalar to'g'risida ma'lumot;

- Depozit shartnomalari bo'yicha ma'lumot;

XATB "DAVR BANK" xizmati SMS-banking xizmatini taqdim etadi. Bu mijozning biznesingiz uchun SMS-xabar. Xizmat mijozga pul mablag'larini olish va hisobdan chiqarish to'g'risida darhol ma'lumot olish imkonini beradi. Tranzaktsiyalar haqidagi ma'lumot SMS-xabarnomalar ko'rinishida mobil telefoniga yuboriladi. Mijoz eng ko'p 3 telefon raqamini ulashingiz mumkin.

Xizmatning asosiy afzalliklari nimadan iborat?

- Hisobni doimiy nazorat qilish;
- Qulaylik va qulaylik;
- Tizimning har bir foydalanuvchisi uchun shaxsiy sozlash, SMS-xabarnoma;
- SMSni qabul qilish funksiyasiga ega har qanday qurilmada mavjud;
- Xizmat O'zbekistonning barcha uyali aloqa operatorlari bilan ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda innovatsion bank xizmatlari mijozlarga qulayliklar yaratadi.

2.2 “DAVR BANK” XATBda yangi bank xizmatlari va maxsulotlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish muhitning tahlili

«DAVR BANK» xususiy aksiyadorlik banki o'zining o'n yetti yillik faoliyati mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar jarayonidagi faol ishtiroki natijasida bugungi kunga kelib mahalliy bank xizmatlari bozorida yuqori ish faolligi, adekvat kapitallashuv hamda daromadliligi yuqori darajaga ega muassasalar qatorida e'tirof etilmoqda.

«DAVR BANK O'zbekiston moliya-bank tizimida barqaror hamda jami aktivlari, depozit portfeli, investitsiya portfeli va kapitallashuv bazasi ko'rsatkichlari bo'yicha doimiy ravishda bozor mavqeini mustahkamlab borayotgan banklardan biridir.

«DAVR BANK» zamon bilan ham nafas ish yuritib, o'tgan yillar davomida professional jamoa, mijozlar va hamkorlarning bankka bo'lgan

ishonchi, zamonaviy bank texnologiyalari, samarali tavakkalchilik menejmenti tizimi, xizmat ko'rsatishning yuqori sifat darajasiga asoslangan barqaror biznes faoliyatini yo'lga qo'ydi. Bunda ayniqsa, 2012 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni bank faoliyati rivojining yangi bosqichi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ldi.

Bugungi kunda bankni poytaxtimizning Shayxontohur, Chilonzor, Yakkasaroy, Mirzo Ulug'bek, Yunusobod, Olmazor va Uchtepa tumanlarida joylashgan jami 7 ta filiali va 2 ta mini-banki orqali sifatli bank xizmatlari ko'rsatilmoqda. Bank bo'linmalarida barcha turdagi zamonaviy bank xizmatlarining yo'lga qo'yilishi va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida «DAVR BANK» mijozlari (yuridik shaxslar) soni 17 mingdan oshdi. Ular orasida respublikamizdagi yirik ishlab chiqarish kompaniyalari va aksiyadorlik jamiyatlarining borligi e'tiborga molikdir.

4-jadval

**XATB “DAVR BANK”ning jami kapitali tarkibi
va dinamikasi (ming so'mda)¹⁵**

Ko'rsatkichlar	Davlat ulushiga ega banklar		
	2016 y.	2017 y.	foizda
Jami kapital	60 904 918	93 711 791	1,54
Ustav kapitali	40 000 000	40 000 000	1,00
Zaxira kapitali	4 939 743	9 072 518	1,84
T aqsimlanmagan foyda	15 334 271	43 784 537	2,86

«DAVR BANK» butun respublikamiz bo'ylab faoliyat geografiyasini kengaytirish yo'lida amalga oshirgan izchil chora-tadbirlari samarasi o'laroq, asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror sur'atda o'sishda davom etib, bu iqtisodiy

¹⁵ XATB “DAVR BANK” Tashqi Auditorning 2016 va 2017 yillar xisoboti asosida tayyorlandi

sodiyotning istiqbolli tarmoqlariga yo‘naltirilayotgan sarmoyalar salmog‘ida ham o‘z ifodasini topmoqda.

«DAVR BANK»ning keng doirada taklif etayotgan raqobatbardosh kredit mahsulotlari, qarz oluvchilarning ehtiyojiga mos holdagi kompleks yondashuv va kredit bozori kon'yunkturasi o‘zgarishlariga vaqtida javob bera olish tamoyili so‘nggi 5 yilda bankning kredit portfeli hajmini 8,2 barobarga oshirish imkonini berdi.

5-jadval

XATB “DAVR BANK”ning jami majburiyatlari tarkibi¹⁶

Ko‘rsatkich nomi	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.		O‘zgarishi, foizda
	ming. so‘m	ulushi foizda	ming. so‘m	ulushi foizda	
Jami majburiyatlar	279 682 399	100	638 695 865	100	228,3
Kredit tashkilotlari mablag‘lari	14 905 674,00	5,33	66 817 879,33	10,46	448,27
Markaziy bank va hukumat mablag‘lari	-	-	24 608 322,01	3,85	100
Mijozlar xisobraqamidagi mablag‘lar (jumladan muddatli)	257 849 745,00	92,19	436 828 104,62	68,39	169,41
Emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlar	4 159 617,00	1,49	2 319 956,99	0,36	55,77
Joriy daromad solig‘i majburiyatlari	23 261,00	0,01	239 401,78	0,04	1029,19
Boshqa majburiyatlar	2 744 102,00	0,98	107 882 200,01	16,89	3931,42

Bank kapitali esa hisobot sanasida 93,7 mlrd. so‘mga etib, so‘nggi besh yilda bu ko‘rsatkich 3,3 barobarga ortdi. Bank o‘z ustav kapitali hajmini bosqichma-bosqich oshirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Natijada hozirgi

¹⁶ XATB “DAVR BANK” Tashqi Auditorning 2016 va 2017 yillar xisoboti asosida tayyorlandi

kunga kelib bank ustav kapitali 70,0 mlrd. soʻmga teng miqdorda shakllantirildi. Bu koʻrsatkich 2018 yil 31 – dekabr holatiga 100,0 mlrd oshirish moʻljallangan. Bu oʻz navbatida, tijorat banklar ustav kapitali uchun belgilangan eng kam miqdordan (100,0 mlrd. soʻm) yetqaziladi.

Bank majburiyatlari dinamikasi mijozlar — ham yuridik, ham jismoniy shaxslar bilan muvaffaqiyatli ish olib borilayotganligini tasdiqlaydi. Soʻnggi besh yilda jalb qilingan depozitlar hajmi 3,2 barobarga oʻsdi va bu koʻrsatkich 2017 yil 31 dekabr holatiga 722,4 mlrd. soʻmdan ziyodni tashkil etdi.

6-jadval

XATB “DAVR BANK” aktivlar tarkibi¹⁷

Aktivlari	01.01.2017 y.		01.01.2018 y.	
	summasi,	ulushi,	summasi,	ulushi,
	ming. soʻmda	foizda	ming. soʻmda	foizda
Naqd va pul ekvivalentlari	27 770 287	8,15	116 678 479	15,95
Kredit tashkilotlariga joylashtirilgan mablagʻlar	60 069 906	17,64	146 824 095	20,08
Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralari	29 023 021	8,52	0	-
Mijozlarga berilgan kreditlar	208 406 283	61,19	318 239 528	43,52
Asosiy vositalar	8 586 059	2,52	11 926 578	1,63
Nomoddiy aktivlar	83 756	0,02	589 024	0,08
Soliq boʻyicha oldindan toʻlangan mablagʻlar	306 154	0,09	1 556 134	0,21
Aloqador kompaniyalarga investitsiyalar	0	-	50 000	0,01
Boshqa aktivlar	6 341 851	1,86	135 456 952	18,52
Jami	340 587 317	100	731 320 791	100

¹⁷ XATB “DAVR BANK” Tashqi Auditorning 2016 va 2017 yillar xisoboti asosida tayyorlandi

Korporativ mijozlar va aholi mablag'larining depozit bazasi sezilarli darajada ko'paygani bankdagi depozit mahsulotlari jozibadorligidan, mazkur faoliyat yo'nalishining ishonchli va barqaror ekanidan, shu bilan birga, istiqbol uchun bank xizmatlari bozoridagi mavqei mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Hozirga kelib «DAVR BANK» 2 ta xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatgan va SWIFT tizimi orqali tasdiqlangan moliyaviy axborotlarni almashish uchun 70 dan ziyod bank bilan o'zaro RMA kalitini almashgan.

Bank jamoasi ilg'or, samarali, eng yaxshi sifatga ega mahsulot va xizmatlarni ko'rsatuvchi hamda yuqori moliyaviy natijalarni ko'zlovchi zamonaviy banklardan biri bo'lish uchun bor kuch-g'ayratini safarbar etmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari rivojiga xizmat qilayotgan bank sarmoyalari to'xtaladigan bo'lsak, mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari bilan bog'liq islohotlarni hayotga izchil tatbiq etishda bank tizimining o'рни alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunda tijorat banklarining kredit amaliyotlari iqtisodiyotning ko'pgina istiqbolli tarmoqlarini moliyalashtirishga yo'naltirilayotgani, ayniqsa, ahamiyatlidir. Shu bois, hozirda bank kredit portfelining sifat darajasi va barqarorligini ta'minlash, o'z resurs bazasini doimiy ravishda mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish moliya muassasalari faoliyatidagi asosiy vazifalardan biriga aylangan. Tijorat banklari tomonidan kredit portfelini samarali boshqarish orqali aholi va xo'jalik sub'ektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirish imkoniyati yaratiladi.

«DAVR BANK»ning barcha filiallarida Prezidentimiz va mamlakatimiz hukumatining qarorlarini ijro etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va u hayotga samarali tatbiq etib kelinmoqda.

2017 yil 31 dekabr holatiga ko'ra, bank kredit portfeli qariyb 316,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Agar mazkur ko'rsatkichni kengroq tahlil qiladigan

bo'lsak, 2017 yil 1 yanvar holatida kredit portfelini 250,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 1,6 barobarga, 2013 yil 1 yanvar holatiga nisbatan esa 2,8 barobarga oshganligini ko'rish mumkin.

Bank tomonidan sanoat va iqtisodiyotning real sektori korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, ularda yuqori sifatli raqobatbardosh xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish, mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish uchun ilg'or texnologiyalar jalb qilish, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishga yo'naltirilgan yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2009 yilning 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1166-sonli Qaroriga muvofiq, bank kredit portfelida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushini oshirish, ularning ulushiga qarab tijorat banklariga o'rnatilgan tabaqalashtirilgan imtiyozli foyda stavka to'lovlaridan foydalanish va birinchi navbatda, ishlab chiqarish hajmini yuksaltirish, raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, aholi bandligini oshirish va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ko'maklashadigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonlari bank faoliyatida ustuvor ahamiyat qaratilayotgan jihatlar hisoblanadi.

2016 yilning 9 oyi davomida investitsiyaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlashga 60 mlrd.so'm yo'naltirildi. Bankning bu yo'nalishdagi moliyalashtirish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobarga oshdi. Kredit portfelida investitsiya kreditlari qoldig'ining ulushi esa 24,5 foizni tashkil qildi.

Mamlakatimiz sanoatida dunyo bozorida barqaror talabga ega bo'lgan raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy, yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, xom ashyo va

materiallar sotib olishga ko‘maklashish maqsadida joriy yilning 9 oyi davomida bank tomonidan 110 mlrd. so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi. Bu jami ajratilgan kreditlar miqdorining 36,0 foizini tashkil etmoqda.

2016 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, bank kredit portfelining tarmoqlar kesimidagi tahlili, eng yuqori ulush kichik biznes korxonalariga ajratilgan kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rsatmoqda.

Bank tomonidan mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash, ichki iste‘mol bozorini o‘zimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish, asosan qishloq joylarda yuqori unumdor texnika va texnologiyalar negizida ixcham qayta ishlash korxonalarini yaratish va aholini ish bilan bandligini ta‘minlash maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorini to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1047-sonli Qarori ijrosi doirasida joriy yilning 9 oyi davomida 38 mlrd. so‘mdan ortiq miqdorda kredit mablag‘lari ajratildi hamda ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobarga oshirildi.

Prezidentimizning 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1050-sonli Qaroriga muvofiq, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, yuqori sifatli raqobatbardosh nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki iste‘mol bozorini to‘ldirish, yangi korxonalarni tashkil etish, mavjudlarini texnik va texnologik jihatdan qayta yangilash hamda aholini ish bilan ta‘minlash yo‘lida 41 mlrd. so‘mdan ziyod miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi. Bunda kreditlash xajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 barobarga ortgan.

Davlatimiz rahbarining 2014 yilning 6 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2124-sonli Qarorida belgilangan

vazifalar ijrosi yuzasidan yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga o'z biznesini boshlash va yanada uni rivojlantirish uchun 2,2 mlrd. so'mdan ziyod miqdorda kredit mablag'lari yo'naltirildi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobarga o'sdi.

Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 apreldagi «Oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 111-sonli Qarori ijrosi doirasida aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mebel, maishiy texnika va uzoq muddat ishlatiladigan boshqa tovarlarni hamda ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaxshilash va ayollarning uy mehnatini engillashtirish maqsadida maishiy va oshxona elektr asboblarni sotib olish uchun iste'mol kreditlari ajratilmoqda.

Bundan tashqari, bank mamlakatimiz aholisini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida sayyohlik yo'llanmalari va respublikamiz hududida joylashgan sanatoriya-kurort muassasalariga yo'llanmalarni hamda «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi aviachiptalarini sotib olish, bir martalik kommunal to'lovlarni amalga oshirish va yurtimizda ro'yxatdan o'tgan oliy o'quv yurtlariga talabalikka qabul qilingan yoshlarning ta'lim olishi uchun kontrakt to'lovlarni to'lash maqsadida kreditlar taqdim etib kelmoqda. Joriy yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, kredit portfelida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i 10,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yil 1 oktabr holatiga kelib bu ko'rsatkich 1,3 barobarga oshib, kreditlarning umumiy qiymati 57,8 mlrd. so'mdan ziyodni tashkil qildi.

Umuman aytganda, 2017 yilning 9 oyi davomida bank tomonidan jami ajratilgan kreditlar miqdori 261,6 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etdi va ushbu kreditlar hisobiga 674 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Shu o'rinda «DAVR BANK» kredit siyosatining o'ziga xosligini kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi vakillarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hajmi tobora oshirib borilayotgani hamda bu soha bankning rivojlanish strategiyasida ustuvorlik qilayotgani bilan izohlash mumkin. Bank tomonidan kichik biznes sub’ektlariga taqdim qilingan kreditlar hisobiga korxonalarda 336 ta yangi ish o‘rni tashkil etildi.

Tadbirkor ayollarga 28,3 mlrd. so‘mdan ziyod miqdorda kredit mablag‘lari ajratildi. «DAVR BANK» tomonidan ayollar tadbirkorligining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi natijasida bank bilan hamkorlik qilayotgan tadbirkor ayollar soni 1300 nafarga etdi.

Sirasini aytganda, «DAVR BANK» XATB davlat dasturlarida belgilangan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosiga, aholi bandligini ta‘minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil qilishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Yurtdoshlarimiz biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlab «DAVR BANK» XATB o‘z faoliyati mobaynida aholi, ayniqsa, ishbilarmonlarning yaqin tayanchi va ko‘makchisiga aylanib ulgurdi. Bankning kredit mablag‘laridan samarali foydalanib, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan hamda bozorlarimiz to‘kinligi, hududlarimiz eksport salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotgan izlanuvchan, tashabbuskor yurtdoshlarimizning muvaffaqiyatlarini kuzatib, bunga yana bir bor amin bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, bank jamoasi nafaqat mahalliy tadbirkorlarimiz, balki respublikamizga sarmoya kiritayotgan xorijiy investorlarning ham ishonchli hamkoriga aylanib bormoqda.

«DAVR BANK» XATB faoliyati avvalambor mijozlar — ishbilarmon va tadbirkor yurtdoshlarimizning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. E’tiborlisi, ularning intilishlari, murod-maqsadi bevosita mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyoti bilan uyg‘un bo‘lib, xalqimiz turmush farovonligini

ta'minlash hamda o'z faoliyatlarida yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochishdan iborat.

«DAVR BANK» XATB jamoasi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mijozlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shish yo'lida faol ish olib bormoqda. Bu uning moliya bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlab, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolar murojaatlari doimiy e'tiborda bo'lib, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga kelayotgan savollarga javob berish ustuvor vazifadir.

— Bank tomonidan bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylangan fuqarolar murojaatlari bilan ishlash, mijozlar talab va ehtiyojini o'rganish asosida yangi bank xizmatlarini joriy etish hamda shu orqali faoliyat samaradorligini ta'minlash masalalariga nechog'li e'tibor qaratilmoqda?

— Bugungi kunda bank xodimidan, mijozlar ishonchini qozonish uchun doimiy izlanish va sa'y-harakatda bo'lish, fuqarolarni o'yantirayotgan masalalarga o'z vaqtida va qonuniy tartibda echim topishda faollik ko'rsatish talab qilinadi. Shu bois, fuqarolar tomonidan yo'llanayotgan yozma va og'zaki murojaatlar yuzasidan bankda o'z vaqtida tegishli amaliy choralar ko'rish va har bir murojaatni e'tiborsiz qoldirmaslikka faoliyatini bosh mezoni sifatida qaralmoqda.

«DAVR BANK» XATBda bu yo'nalishda tizimli va samarali ishlarni yo'lga qo'yishda O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 martdagi «Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning davlat organlariga murojaat etish tartibi yanada takomillashirilgan ushbu hujjatlarda elektron shaklda murojaat qilish tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Shundan kelib chiqib, bankda jismoniy va yuridik shaxslarning belgilangan tartibda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, o'z murojaatlarini amalga oshirishlari uchun kerakli barcha shart-sharoit va zaruriy texnikalar yaratildi.

Bank tomonidan ko'l-markaz (Call Centr) faoliyatining birinchilardan bo'lib yo'lga qo'yilishi ham hozirga kelib har bir murojaatlarni tezkor va hozirjavoblik bilan hal qilish imkonini bermoqda.

Bank faoliyatida o'tgan yillari mobaynida bank aholi va mijozlar bilan ishlashda yuksak mas'uliyat va korporativ madaniyat bilan yondashish tamoyiliga asoslanib ish yuritishi natijasida mijozlar hohish-istagini boshqalarga nisbatan yaxshiroq tushunadigan barqaror moliya muassasasi sifatida nom qozona oldi. Bank jamoasi bu borada qo'lga kiritilgan marralarda to'xtab qolmay, bundan keyin ham olg'a intilishda davom etmoqda. Mijozlar manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik ko'rsatish, fuqarolarning murojaatlariga katta mas'uliyat bilan yondashish bank xodimlarining doimiy diqqat markazida. Bu borada bank xodimlarining kasb darajasini va muomala madaniyatini yuksaltirish yo'lida malakali ruhshunos mutaxassislar jalb qilinib, ular ishtirokida bevosita mijozlar bilan ko'proq ish olib boradigan barcha toifadagi xodimlar uchun seminar-treninglar tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, «DAVR BANK» XATBning respublikamiz mintaqalaridagi filiallarida bank rahbar xodimlari va etakchi mutaxassislarining keng aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari vakillari, kollej bitiruvchilari bilan uchrashuvlari muntazam ravishda tashkil qilinib, bu orqali ularning fikr-mulohazalari o'rganib borilmoqda.

Mazkur uchrashuvlarda O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonunining mazmun-mohiyatini tushuntirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fuqarolar bilan ishlash

munosabatlarini yanada takomillashtirish, murojaatlar ijrosi ustidan nazorat kuchaytirilgani haqida alohida axborot berilyapti. Jonli muloqot tarzida o'tgan uchrashuvlarda fuqarolar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javoblar olmoqdalar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, faoliyat barqarorligini mustahkamlash va xizmat ko'rsatish darajasini yanada takomillashtirish barobarida «DAVR BANK» yakka tartibda, har bir mijozga zamonaviy xizmatlar ko'rsatish doirasini yanada rivojlantirishga o'zining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarab kelmoqda. Bugungi kunda bank o'z mahsulotlari turi va salmog'ini yanada oshirmoqda. Ular qatorida jozibador omonat turlari, plastik kartalarga doir mahsulotlar, masofaviy bank xizmatlari, pul jo'natmalari, kreditlashga oid turli dasturlar mavjud. Bunday yangiliklardan kutilayotgan asosiy maqsad bank imkoniyatlarini mijozlar xohishlariga imkoni boricha muvofiqlashtirishdan iborat. Chunonchi, o'tgan davr mobaynida bank ko'plab muvaffaqiyatlarga erishgan, eng asosiysi, o'z mijozlari uchun hamjihatlikda gullab-yashnashning kafolati tariqasida ijobiy nom qozona olgani bilan ham e'tiborga molik.

Bir so'z bilan aytganda, bankning fuqarolar murojaatlari va aholi ishonchini yanada mustahkamlash yo'lida amalga oshirayotgan sa'y-harakatlari natijasida fuqarolarning mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonidagi faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Pirovardida, bu respublikamiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida barqaror o'sish sur'atlari kuzatilishiga xizmat qilmoqda. Zero, aholi va mijozlar ishonchi bankning asosiy yutug'idir.

Bank biznesidagi ustuvor yo'nalish muhimdir shu bois, yurtimizda bank xizmatlari jadal rivojlanayotgan va sog'lom raqobat muhiti yuzaga kelayotgan bugungi davrda tijorat banklaridan chakana xizmatlar sifatini yaxshilash va ularning turini ko'paytirish ustida doimiy izlanish olib borish talab etilmoqda. Innovatsion bank mahsulotlarining yangi turini ishlab chiqish, joylarda ularning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlash mutaxassisdan boy tajriba, kasbiy mahorat, masalaga ijodiy yondashish, katta tashkilotchilik qobiliyati kabi fazilat va xis-

latlar bo‘lishini taqozo etadi.

«DAVR BANK»ning chakana xizmatlari sohasidan keladigan daromadi so‘nggi 5 yil mobaynida sezilarli darajada o‘tib, xizmat ko‘rsatilayotgan jismoniy shaxslarning soni ham tobora ortmoqda. Bunday natijalarga erishish, shubhasiz, bank jamoasining tinimsiz izlanishlaridan so‘ng amalga oshmoqda. Bank biznesidagi yutuqlarning yorqin namoyon bo‘lishi, keng jamoatchilik tomonidan iliq kutib olinishi, yuksak baholanishi, albatta, barchamizga quvonch va g‘urur bag‘ishlamoqda.

7-jadval

**XATB “DAVR BANK” tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan
innovatsion bank xizmatlari ro‘yxati¹⁸**

t/r	INNOVATION BANK XIZMATLAR RO‘YXATI
1	Internet banking
2	Mobil banking – Davrbank Mobile Business ilovasi
3	Mobil banking – Davrbank Mobile ilovasi
4	Telegram bot
5	SMS banking
6	Onlayn konversiya
7	Kredit olish uchun onlayn ariza
8	Onlayn omonat ochish va yuritish.
9	Xalqaro valyuta kartalarini personal kabineti
10	Virtual terminal Korporativ mijozlar uchun

7-jadvaldan korinib turibiki nafaqat chakana bo‘lim mijozlari balki korporativ bo‘lim mijozlariga ham bir qator qulayliklar yaratilgan. Masofadan turib ya‘ni bankka kelmasdan bankdan ma‘lumot olish va to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiyani amalga oshirish kabi innovatsion bank xizmatlarini taklif qilmoqda.

¹⁸ www.davrbank.uz sayti va call centr ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Bank Kengashi boshchiligida «DAVR BANK»da chakana xizmatini muvofiqlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Unda real hayotdan ajralmagan holda rejalarni tatbiq etish uchun yangicha talqin, yangicha uslub, yangicha shakllarga tayanildi. Bu yoʻldagi ishlar bankning chakana xizmatlarini koʻrsatishdagi qulayliklarni yaratishdan, mini-bank ochiladigan hududni bevosita puxta oʻrganishdan, biz bilan ishlaydigan yosh xodimlarning fikrlash tarzini, kelgusi istiqbol salohiyatini bilish va har gal safarda boʻlib, ularni joy-joyiga qoʻyishdan boshlandi. Ushbu yoʻnalishda bank xodimlari bilan hamjihatlikda katta izlanishlar olib borilmoqda, xodimlar va mijozlarning fikrlaridan inobatda boʻlgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, bu ish aksariyat hollarda bankni muvaffaqiyatlarga erishish asosi boʻlib xizmat qildi.

Har bir bank filiali imkon qadar zamonaviy talablar asosida jihozlangan. Xodimlarga mijozlarni jalb etish yoʻl-yoʻriqlari oʻrgatilib, faoliyatlari boshidan oʻz oʻrinlarini qadrlash yuzasidan maslahat berildan. Bunda yosh bank xodimlarining oʻz ishlariga boʻlgan ijobiy munosabati orqali chakana xizmatlari boʻlimining bank xizmatlarini sifatini taʼsirini kuchaytirildi.

Bank boʻlinmalaridagi amaliyotlar zali qayta taʼmirlanib, eng zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlandi. Mijozlar ham koʻpaydi. Yangi tashkil qilingan «Tadbirkorlar xonasi»da kirib doim malakali mutaxassislar tomonidan mijozgamaslahatlar beriladi. Ularga hurmat bu yerdagi muhitga xos xususiyat orqali mizojlarga koʻrsatilayotgan xizmat sifati oshirib borilmoqda. Yorugʻ xonalarda mijoz va bank xodimining birgalikda ishlashi uchun qulay sharoitlar yaratilib berilgan.

Bank Kengashining qoʻllab-quvvatlashi, tashabbusi bilan joylarda jamoatchilik ruhini mustahkamlash, shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish maqsadida «Chakana xizmatlari sohasida toʻplagan tajribalarimiz va uning istiqbollari» mavzusida seminar-treninglar tez-tez oʻtkaziladi. Oʻquv mashgʻulotlari jarayonida yoshlarning faolligi kuzatilib, muloqotlar samimiy

o'tishiga zamin hozirlanadi. Yoshlar o'zlari band bo'lgan ishlarining qadrlanishini shaxsan his etadilar. Ular o'z mehnatlarining yuzaga chiqishiga ishonsdilar hamda o'zlari ustida ishlashda davom etadilar.

Bankning bu kabi yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lishida mamlakatimiz Prezidentining 2008 yil 20 fevraldagi PF-3968-sonli «Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni va 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PQ-1438-sonli Qarori xodimlarimizning kundalik ish faoliyatida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida bank xizmatlarini taraqqiy ettirish — davr talabi bo'lib, mamlakatimizda axborot texnologiyalari asosida hayotga tatbiq etilayotgan zamonaviy bank xizmatlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda va bu bank xizmatlari bozorini yanada takomillashtirmoqda.

«DAVR BANK» XATB mamlakatimiz va xorijda tashkil etilayotgan turli tadbirlarda faol ishtirok etib, ilg'or tajribalarni o'rganish va o'z faoliyatida yangi mahsulotlarni tatbiq etishga erishib kelmoqda. Buning yorqin dalili sifatida «BankExpo» — bank texnologiyalari, uskunalari va xizmatlari an'anaviy milliy ko'rgazmasida bank nufuzli hay'at tomonidan har yili turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilganini ko'rsatish mumkin. Ya'ni, bu bank jamoasining zamon talablari darajasida xizmat qilayotgani, ilg'or texnologiyalarni o'z faoliyatiga joriy etishda faollik ko'rsatayotganining yana bir e'tirofidir.

Darhaqiqat, «DAVR BANK» jamoasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda ularning turini ko'paytirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijrosini bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirib kelyapti. Xususan, moliya

muassasasida «Internet-banking», «SMS-banking» va «Telegram bot» kabi masofaviy bank xizmatlarining joriy etilgani mijozlarga qulaylik tug'dirmoqda. «Internet-banking» xizmati mijozga o'zining bankdagi hisobini dunyoning istalgan joyidan internet tarmog'i orqali boshqarish imkonini bersa, «SMS-banking» tizimidan foydalanuvchilar o'z hisobvaraqlarining holati to'g'risida mobil telefon orqali ma'lumot olishlari mumkin.

Shu bilan birga, «DAVR BANK» tomonidan bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni yuqori pog'onaga olib chiquvchi «Mobile Banking» axborot dasturi ishga tushirilgan. Bu xizmat orqali mijozlar mobil qurilmalari ko'magidan foydalangan holda, bankdagi o'z hisobvaraqlariga kirish hamda uni mustaqil boshqarish imkoniga ega bo'lishdi.

Hozirda bank mijozlarining 4500 dan ziyodi «Internet-banking» va «SMS-banking» xizmatidan foydalanayotgan bo'lsa, yaqin istiqbolda bu ko'rsatkichning 10 000 taga etkazilishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda "raqamli" banklarni rivojlantirish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. O'zbekistonda "raqamli" banklar faoliyati uchun sharoit yaratiladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan belgilanadi.

"Raqamli" banklar ommaviy muhokamalar uchun nashr etilgan "Faol tadbirkorligi, innovatsion g'oyalar va texnologiyalar yili" Davlat dasturining 2018 yilgi loyihasida aytib o'tildi.

O'zbekiston raqamli bank tizimini rivojlantirish bo'yicha kursni rasman qabul qildi. 2018 yilning yanvarida qonun birinchi navbatda "raqamli bank" atamasi bo'lib, uzoq masofali bank xizmatlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. "Masofaviy xizmat" raqamli bankni asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bu shuni anglatadiki, barcha bank operatsiyalari masofadandan amalga oshiriladi. Qisqacha aytganda, agar siz hisob raqam ochishingiz kerak bo'lsa,

kredit(ssuda) olishingiz yoki uni to'lashingiz kerak bo'lsa, hech qanday joyga borishingiz shart emas - uyingizdan, mobil ilovada yoki veb-sayt orqali buni amalga oshirishingiz mumkin. Xo'sh, bu internet-bankingmi? Yo'q, bu emas. Internet-banking - bu tarkibiy qismlardan biridir. "Raqamli" bankda mutlaqo barcha jarayonlar texnologiyadan foydalanishga bog'liq - suhbat, onlayn muloqot shakllari yoki hatto messenjer orqali maslahat olishingiz mumkin. Agar ilgari bankda turishga to'g'ri kelgan bo'lsa, hozir siz suhbatdan foydalanishingiz mumkin. Elektron raqamli imzoni joriy etish uydan chiqmasdan kartalarni buyurtma qilish va olish imkonini beradi. Mijoz va bank o'rtasidagi munosabatlarning mohiyati o'zgarib bormoqda - agar siz avval bank bank xizmatiga murojaat qilishingiz kerak bo'lgan aniq jismoniy joy bo'lsa, hozir u o'zi keladi va mijozlarga xizmatlarni qulay joyda - telefonda, saytda, ijtimoiy tarmoqlarda taklif qiladi. Shunday qilib, dasturga ega bo'lgan har qanday bank "raqamli" hisoblanmaydi. "Raqamli" bank texnologiya haqida emas, balki odamlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgartirish haqida emas balki, texnologiya yordamida uni eng qulay tarzda qilishdir. Arizani yaratib, filiallarning manzili haqida ma'lumotni qo'shib, bank "raqamli" bo'lmaydi. Bu, birinchi navbatda, soat 9.00 dan 18.00 gacha bo'lgan pul depoziti bilan ma'lum bir joydan, haftasiga 7 kun 24 soat, yaqin do'st va yordamchiga aylanishi kerak. Kartani yo'qotdingizmi? Saytga arizani to'ldiring, EDS ni tasdiqlang, telefondan kartangiz bilan to'ldiring va sizni yangi telefonni olib kelishingizni kuting. Shoshilinch valyuta kerakmi? Dasturga kiring va mablag'ni onlayn konversiya qiling. Kommunal xizmatlar uchun pul to'lash kerakmi, qarz so'rab olasizmi yoki katta miqdordagi pulni topshirish kerakmi? Bularni hammasiga "Raqamli" bank yordam beradi.

Mijozlar bilan hamma narsa aniq, lekin nima uchun banklar pul sarflashlari va "raqamli" bo'lishlari kerak? Bularni hammasiga raqobat sabab. Avval Amerika Qo'shma Shtatlarida, keyin G'arbiy Evropada, hozir O'zbekistonda esa, o'z mijozlarining hayotini sodda va qulay qilishga intilgan banklar paydo bo'ldi. An'anaviy banklar to'satdan odamlarning o'z ofisiga ega

bo'lmagan raqiblariga murojaat qilishni boshladilar. Buning sababi juda oddiy - odamlar o'z vaqtlarini tejash va hisobni ochish uchun banklarni tanlashni xohlashadi, bu bir vaqtning o'zida (va ba'zan kerak bo'lmay qoladi) - hamma narsa uzoqdir va ular uchun eng qulay bo'lgan kanal. Natijada, mijozlar bazasi asta-sekin xizmatga asosli ravishda boshqa yondashuvni taklif qiladigan joyga oqib keladi. Bundan tashqari, raqamli tizimga o'tish mijozlarga mijozlar haqida ko'proq ma'lumot olish va o'z odatlarini, preferentsiyalari va xohishlarini yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi.

Xavfsizlik ga to'xtaladigan bo'lsak, "Digital" operatsiyalari va mablag'lar uchun xavfsizlikning yangi darajasini ta'minlaydi. Qoida tariqasida, operatsiyalar sms-xabar yoki faqat siz uchun tanilgan kod so'zlari bilan tasdiqlanishi kerak bo'lgan holatlarda (ikki nusxada autentifikatsiya qilish) 3D-xavfsiz foydalanadi. Ko'plab mutaxassislar blokirovka tizimiga sizning pulingizni xavfsizlik darajasini fantastik darajaga etkazish imkonini beradi, chunki siz faqat o'zingiz bilgan kodning yordami bilan va boshqa hech narsa qila olmaysiz.

Qanday qilib, bu misolda bularning barchasi ishlaydi? Ko'pchilik duch kelgan vaziyat. Muammoingiz bor va buni hal qilish kerak. Siz bankni chaqirasiz, musiqani 10 minut tinglaysiz, ular uchun sizning qo'ng'iroqingiz juda muhim ekanligiga aytishadi, keyin sizning muammoingizni tushuntirib berganingizdan so'ng u odam sizning muammoingizni tushunmasligini tushunasiz. Bu muammoni bartaraf etmaydi - sizdan kutish talab etiladi, avval bir mutaxassisga, so'ngra boshqasiga ilashadi. Oxir-oqibat, vaqt va nervlarni yo'qotasiz, ammo muammolar qoladi. "Raqamli" bankda u boshqacha - dasturning bir yoki boshqa qismidan qo'ng'iroq qilasiz va to'g'ri odam telefonni darhol qabul qiladi. "Salom, Abror! Tarjima bilan bog'liq muammo borligini ko'rmoqchiman? Kim "qaror qabul qiladi - omnikanalnost (kanal integratsiya) bank qo'ng'iroq va qanday savol kim ko'rish imkonini beradi. Muammo tez va oson echildi.

O'zbekistonda "raqamli" banklar qachon paydo bo'ladi? ABT amalga oshirish bank qilish uchun ko'proq shaxsiylashtirilgan resurslardan foydalanish bilan ta'minlash, mijozlar real vaqt ma'lumotlarni qabul qilish imkonini beradi qachon hech amaliyoti ochiq bank foydalanish bor deb "raqamli" bank xizmatlari, ayrim vazifalari, ayrim tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan, lekin O'zbekistonda to'laqonli "raqamli" bank, hali etiladi echimlar. valyuta erkinlashtirish jarayonining boshlanishi bilan paydo yo'qligi, yaqinda qadar, banklar o'rtasida raqobat, - asosiy sababi. Ular "raqamli" banklarning rivojlanishiga va bank tizimining eskirgan me'yoriy-huquqiy hujjatlariga to'sqinlik qildilar. Ushbu va boshqa omillarni "raqamli" banklar kursi bilan qabul qilib, hukumat tomonidan hal qilinishi mo'ljallangan. jismoniy ofis holda, lekin eng samimiy uzoq xizmati bilan - Shunday qilib, yaqin kelajakda mamlakat ham butunlay "raqamli" bank paydo bo'lishi mumkin.

2.3 Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion bank xizmatlarini iqtisodiy barqarorlikka ta'sirining tahlili

Bugungi kunda har bir kunimiz mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishida muhim omil bo'luvchi yangiliklarga boy bo'lmoqda, jumladan, jahon bank-moliya tizimining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida iqtisodiyotning muhim tarmog'idan biri hisoblangan bank sohasida ham yangi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

Darhaqiqat, tijorat banklari tomonidan axborot texnologiyalarini qo'llagan holda ko'rsatilayotgan barcha xizmatlarning tezkorligi, sifati va shaffofligi bugungi kun talabidir. Endilikda an'anaviy bank xizmatlari o'rnini to'la egallayotgan zamonaviy masofaviy bank xizmatlarining turli ko'rinishlari aynan shu tezlik, sifat va ishonchni ta'minlayotgani hech kimga sir emas. Zamonaviy bank xizmatlari mijozlarga yanada kengroq qulaylik yaratgan holda ularning imkoniyatlari oshirilishiga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzada ta'kidlaganlaridek, — «Bugungi sharoitda, internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda». Zero, keyingi yillarda O'zbekiston bank tizimida izchil va aniq maqsadli islohotlar olib borilmoqda, chora-tadbirlar, bank-moliya xizmatlarini ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilashga doir bir qator qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1989-sonli Qarori bilan Markaziy bankning «Chakana to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish kliring tizimini yaratish hamda xizmat ko'rsatuvchilarning billing tizimi bilan integrallash» loyihasi respublika «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari tarkibiga kiritildi. Shu munosabat bilan respublikamizda naqd pulsiz chakana to'lovlarning amalga oshi-rilishida jismoniy shaxslar va ulardan to'lovlarni qabul qilib oluvchi tomonlar o'rtasida hisob-kitoblarning zamonaviy samarali tizimini tashkil etish maqsadida, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisob-kitoblar kliring tizimi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2014-yil 21-fevraldagi 4/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan holda Adliya vazirligida 2014-yilning 4-aprelida 2570-son bilan davlat ro'yxatiga olindi.

Ushbu Nizom talablari respublikamizda jismoniy va yuridik shaxslar


tomonidan Kliring tizimi orqali milliy valyutada naqd pulsiz chakana to'lovlarni amalga oshirishga nisbatan tatbiq etiladi.

Kliring tizimini yaratishdan maqsad unga tijorat banklari filiallari, kassalari va O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi qoshidagi Yagona umumrespublika Protsessing markazini ulagan holda, jismoniy shaxslarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, kommunal xizmatlar va mobil aloqa operatorlari uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyatini yaratishdan iborat. Bundan tashqari, mazkur tizim mijozlarga kechayu-kunduz bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish va bank infokiosklari orqali ishlash imkoniyatini beradi. Mazkur O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Hisob-kitoblar kliring axborot dasturiy majmuasining loyihasi ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda Markaziy bank huzurida Hisob-kitob banki tashkil etilib, bank mijozlarining majburiyatlari bo'yicha banklarning vakillik hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash mexanizmi yaratildi va Yagona umumrespublika Protsessing markazi bilan o'zaro faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bu bosqichni belgilangan muddatda, ya'ni 2013-yil 16-sentabrda bajarilib, hozirgi kunda barcha bank plastik kartalari orqali amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha yakuniy hisob-kitoblar Markaziy bankning Kliring tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, huquqiy asoslarni belgilab berish maqsadida «O'zkart banklararo chakana to'lov tizimi faoliyati to'g'risida»gi Nizomga (ro'yxat raqami 2369, 2012-yil 30-may) tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Hozirgi kunda bank kartalari bilan ushbu tizim orqali amalga oshirilgan o'rtacha oylik tranzaksiyalar summasi 2,14 trln. so'mga yetdi. Ikkinchi bosqichda 2013-yilning 4-choragi va 2014-yilning 1-choragi davomida Markaziy bankning Kliring tizimi bilan Davlat soliq qo'mitasi axborot tizimi, shuningdek, «O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyati hamda «O'ztransgaz» aksiyadorlik kompaniyalarining billing tizimlari integratsiya qilingan holda

soliq va boshqa majburiy to'lovlar, elektr energiya va gaz iste'mol uchun to'lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.




1-rasm. Kliring tizimi orqali o'tgan transaksiyalar soni.¹⁹

Markaziy bank Kliring tizimi orqali ushbu yo'nalish bo'yicha 2015-yil davomida jami amalga oshirilgan to'lovlar summasi 603,43 mlrd. so'mni tashkil qildi, jumladan, «O'zbekenergo» uchun to'lovlar 235,61 mlrd. so'm (39 foiz), «O'ztransgaz» bo'yicha to'lovlar 227,22 mlrd. so'm (37,6 foiz), Soliqlar bo'yicha to'lovlar 134,45 mlrd. so'm (22,3 foiz), shuningdek, boshqa xizmatlar bo'yicha to'lovlar 6,15 mlrd. so'mni (1,1 foiz) tashkil etdi.

Markaziy bank Kliring tizimi orqali 2015-yil mobaynida o'rtacha bir oylik tranzaksiyalar soni 590 mingtani, tranzaksiyalar summasi esa 50,3 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Bugungi kunda «Suvsoz» DUK, «Maxsustrans» DUK, «Issiqlik quvvati» UK, shuningdek, UCell mobil aloqa operatori, Net television hamda Perfectum mobile, Uzmobiler, UMS aloqa operatorlari Markaziy bankning Kliring tizimiga ulanib, ushbu xizmatlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Kliring tizimiga «O'zbektelekom» AKning korxonalarining billing tizimlarini bosqichma-bosqich ulash bo'yicha ishlar olib

¹⁹ «ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ БАНКИНИНГ 2017 ЙИЛДАГИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА ҲИСОВОТИ» Тошкент 2018 й. асосида муаллиф томонидан таййорланди

borilmoqda.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan transaksiyalar summasi.²⁰


Markaziy bankning hisob-kitoblar kliring tizimi tomonidan elektron to'lov hujjatlari va xabarlari bo'yicha tizim a'zolariga tasdiqnoma yuboriladi. Tizim a'zolari tomonidan tasdiqnoma olingan vaqtdan boshlab, kliring tizimi bo'yicha amalga oshirilgan to'lov yakuniy va chaqirilmas hisoblanadi. Bank amaliyot kuni davomida amalga oshirilgan kliring sessiyalari yakunlari bo'yicha shakllantirilgan hisobotlar Kliring tizimi a'zolariga yuboriladi. Markaziy bank hisob-kitoblar Kliring tizimining banklar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan o'zaro munosabatlar sxemasi keltirilgan.

Markaziy bankning Kliring tizimi to'lovlarni o'tkazish jarayonida Davlat soliq qo'mitasining axborot tizimlari bilan o'zaro birgalikda ishlashini ta'minlab, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisobga olish jarayonini avtomatlashtirish va qog'oz kvitansiyalaridan voz kechish imkonini beradi.

Markaziy bankning Kliring tizimi elektr energiyasi, gaz, kommunal sohalarida xizmat ko'rsatuvchilar va internet-provayderlar hamda an'anaviy va mobil aloqa operatorlarining billing tizimlari bilan o'zaro aloqani ta'minlagan

²⁰ «ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ БАНКИНИНГ 2017 ЙИЛДАГИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА ҲИСОВОТИ» Тошкент 2018 й. асосида муаллиф томонидан тайёрланди

holda, bank plastik kartalari va boshqa depozit hisobvaraqlari orqali, chakana to'lovlar bo'yicha real vaqt rejimida o'zaro hisob-kitoblar holatiga asoslanib, xizmatlar ko'rsatish uchun mo'ljallangan.



3-rasm. Kliring tizimini ishlash prinsipi²¹

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi «2011–2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi PQ-1438 sonli Qarori ijrosini ta'minlash borasida bank tizimida keng ko'lamli ishlar izchil amalga oshirildi, ayniqsa, keying yillarda mamlakatimiz tijorat banklari chakana operatsiyalarni rivojlantirish orqali o'z mijozlariga taqdim etadigan xizmatlar turlarini


²¹ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi

kengaytirishga va o'z faoliyatini diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratildi. Ushbu maqsadda banklar tomonidan mamlakatimiz moliya-bank infrastuzilmasini rivojlantirish orqali mijozlarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'z hisobvaraqlarini masofadan boshqa-rish imkoniyatlari kengaytirildi. Masofaviy bank xizmatlarini hayotga tatbiq qilish orqali kredit tashkilotlari o'zlarining an'anaviy bank operatsiyalariga qo'shimcha ravishda, mijozlar ehtiyojini to'laroq va sifatliroq qondiradigan yangi bank mahsulotlarini ham taklif etmoqdalar.

Ayni paytda, 2016-yilning 1-yanvar holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 1 061 022ta bo'lib, shundan internet-banking va «Bank-Mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 81 492tani tashkil etgan bo'lsa, mobil-banking va sms-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 979 530tani tashkil etadi. Bu esa, o'tgan 2011-yil 1-yanvar holatiga (24 545taga) nisbatan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 43 barobardan ortiq oshganligidan dalolat beradi. Xususan, o'tgan qisqa besh yil mobaynida internet-banking va «Bank-Mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 5,7 baravarga oshgan bo'lsa, mobil-banking va sms-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni esa 95 baravarga oshganligidan dalolat beradi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori ijrosini ta'minlash borasida YaUPM tomonidan server va kommunikatsiya jihozlari, tizimli dasturiy ta'minotlar xarid qilinib, o'rnatildi va ishga tushirildi, server va terminallar uchun amaliy dasturlar yaratildi. Mijozlarga qulayliklar yetqazish maqsadida bu ishlar kelajakdham olib

boriladi.




4-rasm. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlardan foydalanuvchilar soni²²

Mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu tizimni takomillashtirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi PQ-1325-sonli «Bank plastik kartalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosi yuzasidan Markaziy bank, O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi va Yagona umumrespublika protsessing markazi (YaUPM) tomonidan «Uzkart» banklararo to'lov tizimi ishtirokchilari bo'lgan tijorat banklari bilan birgalikda «on-line» rejimida ishlaydigan «Smart-Vista» EMV texnologik platformasi to'liq joriy etildi.. Natijada tijorat banklarining bo'limlari va filiallaridan Bosh bank ma'lumotlarni qayta ishlash markaziga yetkaziladigan ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha oraliq bo'g'inlarni chiqarib tashlash hisobiga to'lovlarning o'tkazilishini tezlashtirishga erishildi.

²² www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida mualif tomondan tayyorlandi

Shu bilan birga, «On-Line» rejimida ishlovchi «Uzkart-EMV» milliy banklararo plastik kartochkalar to'lov tizimini joriy etishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarida tegishli dasturiy-apparat majmualari ishga tushirildi hamda EMV texnologiyasiga moslashgan terminallar joriy qilindi. Masofaviy bank xizmatlarini yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlarni yillar va turi kesimida.



5-rasm. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlardan foydalanuvchilar sonini xizmat turlari kesimida.²³

Masofaviy bank xizmatlari turlari rivojlantirish natijasida, 2016-yil 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha barcha tijorat banklari tomonidan onlayn rejimida ishlaydigan 8 426 280 ta bank plastik kartalari muomalaga chiqarilishiga erishildi. Bu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilar amalga oshirish mo'ljallangan:

- muomaladagi onlayn bank plastik kartalari, to'lov terminallari, infokiosklar sonini oshirgan holda respublika moliya infrastrukturasi kengaytirish;
- Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha, dasturiy ta'minot, bankomat va plastik kartochkalar orqali to'lovlarni amalga

²³ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi

oshirish uchun foydalaniladigan boshqa uskunalar import bo'yicha olib kirilganida tijorat banklari boj to'lovlarini to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) 2020-yil 1-yanvarga qadar ozod qilish;

- plastik karta tizimi uchun import shartnomalari bo'yicha xarid qilingan texnik va dasturiy vositalardan samarali foydalanishni nazorat qilish va zarur choralarini ko'rish.

«Smart-Vista»EMV tizimida «on-line» rejimida ishlashga mo'ljallangan terminallarning sifatli ishlashini ta'minlash maqsadida YaUPMning server tizimi va aloqa kanallari sifatli va uzluksiz ishlashini monitoring qilish.

Respublika bank tizimida yuqorida qayd etilganlarning joriy qilinishi tizim a'zolari hisoblangan banklar, shuningdek, tizim foydalanuvchilari bo'lgan, mablag'larni to'lovchilar va mablag'larni oluvchilar uchun quyidagi afzalliklarni yuzaga keltiradi:

- zamonaviy bank axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini to'laqonli shakllanishiga imkon yaratadi;
- to'lovlarni amalga oshirishning uzluksizligini va shaffofligini ta'minlaydi;
- tijorat banklari o'rtasidagi vakillik hisobvaraqlari doirasidagi hisob-kitoblarni optimallashtirilishi va jadallashtirilishiga imkon yaratadi;
- mablag'larni to'lovchi va mablag'larni oluvchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarning real vaqt rejimida amalga oshirilishi orqali to'lovlarning aniqlik va ishonchlilik darajasi oshirilishini ta'minlaydi;
- tijorat banklari uchun tizim xarajatlarining kamayishiga olib keladi hamda vakillik hisobvaraqlaridagi bo'sh pul mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishlariga imkon yaratadi;
- har bir bosqichda ma'lumotlarning ishonchliligini nazorat va monitoring qilinishini ta'minlaydi;

- bank xizmatlarining likvidligi oshirilishiga erishiladi;
- jismoniy shaxslar uchun masofadan turib, o'z hisobvaraqlarini boshqarish tizimlari orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa real vaqt rejimida pul mablag'larini ko'chirish imkoniyatini beradi;
- real vaqt rejimida jismoniy shaxslar o'rtasidagi pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkoniyati;
- jismoniy shaxslar bank plastik kartalari va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larni kredit hisobvaraqlari foizi hamda kredit summasini so'ndirilishiga uzatish imkoniyati;
- internet tarmog'i orqali elektron tijorat doirasida amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni bank plastik kartalari yordamida bajarish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotni joriy etish imkoniyati;
- elektron tijorat doirasida tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni boshqa depozit hisobvaraqlari orqali real vaqt rejimida amalga oshirish imkoniyati tashkil etildi.

Eng muhimi, hozirgi kunda respublikamizda dolzarb masala hisoblangan kommunal xizmat ko'rsatuvchilar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, maxsustrans xizmati, issiqlik manbai, suvsoz xizmati va boshqalar) ning kommunikatsiya tarmoqlari infratuzilmasi shakllantirilib, ushbu xizmatlar bo'yicha aholi tomonidan amalga oshirilgan to'lovlar real vaqt rejimida mablag'lar oluvchining hisobvaraqlariga o'tkazilishi bilan birga, elektron jurnallarda har bir mablag' to'lovchilarning kommunal xizmatlar uchun to'langan mablag'larining summasi, muddati (yil, oy, kun, soat, daqiqa, soniya ko'rinishida) va to'liq rekvizitlari bo'yicha qayd etib boriladi. Mablag'larni to'lovchilar internet tarmog'i yoki mobil telefonlariga SMS-xabarnoma kelishi orqali o'z shaxsiy kabinetlaridan har bir kommunal xizmatlar bo'yicha to'lovlar tarixini real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa to'lovlarning ishonchliligini hamda shaffofligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Markaziy bank tomonidan «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi, «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi, «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi, «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi, «Elektron to‘lovlar to‘g‘risida»gi, «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi, «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi, «Garov reyestri to‘g‘risida»gi va «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-sonli «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘-risida»gi, 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va resurs bazasini shakllantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari ijrosini mamlakat bank tizimida samarali ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini 2016–2018 yillar davomida joriy etish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Mazkur Konsepsiyada zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda

2016–2018 yillar davomida banklar tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirish, takomillashtirish va joriy etish istiqbollari belgilab olingan bo‘lib quyidagi masalalarni:

- Bank axborot tizimlarida zamonaviy texnik yechim va texnologiyalarni keng qo‘llagan holda bank faoliyatini avtomatlashtirish darajasini yuqori saviyaga ko‘tarish;
- O‘zbekiston Respublikasi «Elektron hukumat» tizimi tarkibiga kiritilgan chakana to‘lovlarni real vaqt rejimida amalga oshirish Kliring tizimining xizmat doirasini kengaytirish;

- Davlat buyurtmasi ro'yxatiga kiritilgan (2015–2016 yillar uchun) «Tashqi savdo operatsiyalarining Yagona elektron axborot tizimini (TSO YAEAT) takomillashtirish» loyihasini elektron tijoratdagi bitimlarni hisobga olgan holda ishga tushirish;
- Bank axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash;
- Bank axborot resurslarini doimiy ravishda zaruriyat bo'yicha yangilab borish va ulardan keng foydalanishni ta'minlash;
- Bank tizimida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida avtomatlashtirish orqali bank xizmatlari turlarini amaliyotga keng tatbiq qilish va kengaytirish, aholi va tadbirkorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish;
- Aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan axborotlarni erkin va moneliksiz olishni ta'minlash, shuningdek, interaktiv xizmat turlarini kengaytirish, xizmatlarni «bir darcha» orqali ko'rsatishni joriy qilish;
- xavfsizlik va axborotlar muhofazasining tashkiliy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- Bank plastik kartalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tizimidan foydalanish bo'yicha orttirilgan tajribaga asosan onlayn plastik karta xizmatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Markaziy bank va tijorat banklarining Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytlari faoliyatini doimiy monitoring qilish va sifatini oshirish. Jumladan, ma'lumotlarni muntazam yangilab borish, veb-saytlar orqali ko'rsatila-digan interaktiv xizmatlar turlarini kengaytirish;
- Respublikada elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasi va davlat dasturlarini amalga oshirish va joriy etishda faol qatnashish;
- Garov reyestri tizimini xalqaro talablar darajasiga mos kelishini ta'minlash;

- Kredit axboroti milliy instituti axborot tizimlarini takomillashtirish;
- Bank sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar malakasini muntazam ravishda oshirish, kadrlar tayyorlashni yangi sifat bosqichiga ko'tarish.

II bob bo'yicha xulosalar

XATB "DAVR BANK"ning Shayxontohur, Chilonzor, Yakkasaroy, Mirzo Ulug'bek, Yunusobod, Olmazor va Uchtepa tumanlarida joylashgan jami 7 ta filiali va 2 ta mini-banki orqali sifatli bank xizmatlari ko'rsatish maqsadida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'lidadir. Bank bo'linmalarida barcha turdagi zamonaviy bank xizmatlarining yo'lga qo'yilishi va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga alohida e'tibor qaratilishi natijasida «DAVR BANK» mijozlari (yuridik shaxslar) soni 17 mingdan oshibdi. Ular orasida respublikamizdagi yirik ishlab chiqarish kompaniyalari va aksiyadorlik jamiyatlarining borligi e'tiborga molikdir. «DAVR BANK» XATB tomonidan axborot texnologiyalarining taraqqiyoti uchun investitsiyalar yo'naltirishga biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirishning hamda raqobat kuchayayotgan hozirgi sharoitda bozor mavqeini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida qaralmoqda. Shuning uchun chet el banklarida ishlagan xodimlarni tajribasini o'rganib, O'zbekiston sharoitida amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining qon-tomiri hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, to'lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

III BOB. TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MEXANIZMLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1 Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari va ularni rivojlantirish istiqbollari

Ma'lumki, davlatning iqtisodiy soxasi rivojlanishini samarali faoliyat ko'rsatuvchi to'lov tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Samarali faoliyat ko'rsatuvchi to'lov tizimlari davlat moliya tizimi barqarorligining asosi bo'lib, iqtisodiyotda operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy va boshqa resurslardan samarali foydalanish, moliya bozori likvidligini oshirish va pul-kredit siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun xizmat qiladi.


Turli xorijiy davlatlar tajribasi to'lov tizimlarining rivojlanishi birinchi navbatda to'lov vositalari va xizmatlarini kengaytirish natijasida bank operatsion xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar samaradorligini oshirishga olib kelishini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga, bank kartalari orqali onlayn to'lovlarni keng qo'llanilishi to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'lik bank xizmatlarining samaradorligini oshirishga olib keladi.

Bugungi kunda respublika banklari tomonidan bank kartalari yordamida naqd pulsiz xisob-kitoblar tizimini kengaytirish maqsadida 19,3 mln bank kartalari muomalaga chiqarilgan bo'lib, ushbu kartalar orqali 2017 yilning o'n oyi mobaynida 36,9 trln so'mga yaqin tranzaksiyalar o'tkazildi.

Tijorat banklarining chakana to'lovlar, shu jumladan, bank kartalari vositasida amalga oshirilgan to'lovlar buyicha o'zaro hisob-kitoblari Markaziy bankning Kliring tizimi orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, Markaziy bankning Kliring tizimi, chakana to'lov tizimlari bilan birgalikda ishlashidan tashqari, Moliya vazirligi G'aznachiligining axborot tizimi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning billing tizimlari bilan integratsiya qilingan xolda to'lovlarni o'tkazish imkonini beradi.

Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan onlayn-banking texnologiyalarini, jumladan, mobil banking xizmatlarini real vaqt rejimida ko'rsatish tizimlarini yanada rivojlantirish, barcha banklarning kartalarini to'liq qamrab olish maqsadida jismoniy shaxslar uchun mobil to'lov dasturlarini yaratish va joriy qilish bo'yicha reja-grafiklarni ishlab chiqildi.



6-rasm. Muomalaga chiqarilgan bank kartalar soni


(1 yanvar holatiga, ming donada)²⁴

Izoh: DUET kartalari bilan bog'liq loyixalarning tugatilayotganlinligi sababli 2017 yil davomida kartalarning umumiy soni qisqargan.

Bank kartalari orqali o'tkazilgan operatsiyalarning asosiy qismi savdo to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar orqali amalga oshirilgan. Hozirgi kunda jami o'rnatilgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan terminallar soni 235 ming dan ortiq bo'lib, infokiosklar soni esa qariyb 5,5 mingtani tashkil

²⁴ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida mualif tomondan tayyorlandi

etmoqda. Bu ko'rsatlichlar yanada o'sishi kutilmoqda. Shu bilan birga muomaladagi plastik kartalar soni o'shib bormoqda. Xalqaro to'lov kartalariga (Visa, MasterCard, Unionpay) axoli tomondan katta talab yuzaga kelmoqda.



7-rasm. O'rnatilgan hisob-kitob terminallari, infokiosk va bankomatlar soni

(1 yanvar xolatiga)²⁵

Zamonaviy to'lov texnologiyalari va masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi bilan bir qatorda masofaviy naqd pulsiz to'lovlar soni oshib bormoqda. Jumladan, xozirgi kunda mobil telefonlar orqali to'lovlarni amalga oshirish ommalashib bormoqda. Bu borada banklar tomonidan chiqarilgan 3,7 mln. dan ortiq bank kartalarining egalari mobil to'lov tizimlaridan foydalanmoqdalar.

Mobil to'lov tizimlari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar asosan mobil operatorlar, internet provayderlar xizmatlari uchun (nobank chakana to'lov

²⁵ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida mualif tomondan tayyorlandi

tizimlari orqali) to'lovlarni o'tkazish bo'lib, kommunal to'lovlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni Kliring tizimi orqali o'tkazish salmog'i yuqori bo'lib kelmoqda. Joriy yilning o'tgan o'n oyi mobaynida Markaziy bankning Kliring tizimi orqali xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar xisobiga amalga oshirilgan to'lovlar so'mmasi 4 trln. so'mga yetib, tranzaksiyalar soni 31 mln.tadan ortdi.

Shu bilan birga, mobil to'lov dasturlari imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida Markaziy bankning Kliring to'lov tizimi asosida banklardagi hisobraqamlarni boshqarish, kartadan kartaga, hisobraqamdan hisobraqamga to'lovlarni amalga oshirish, onlayn kreditlar qaytarish (kreditlarni so'ndirish) va to'lovlarni amalga oshirish, onlayn jamg'armalar ochish, savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalariga onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi mexanizmlar sinovdan o'tkazilmoqda va qisman ishlamoqda. Ushbu mexnizmlarning yagona platformada joriy qilinishi, bank mijozlari - jismoniy shaxslarga bankdagi o'z hisobraqamlarini xar kuni 24 soat (dam olish va bayram kunlarisiz) tasarruf etish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda Kliring tizimi orqali TIF Milliy banki, Davr Bank, Qishloqqurilishbanki, Hamkorbank, Ipoteka banki, Uzsanoatqurilishbanki, Ipak Yuli banki, Turonbank, Turkistonbank mijozlari R2R-to'lovlarini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ruyxat doimiy ravishda kengaymoqda.

Naqd pulsiz to'lovlarni rivojlantirish borasida 2018 yilda banklar tomonidan mobil to'lov dasturlari yordamida QR code va NFC kabi texnologiyalar asosida kontaktsiz to'lovlarni o'tkazish va kabul qilish imkoniyatini yaratish rejalashtirilmoqda. Davr Bank tomonidan o'z mijozlariga EPOC virtual terminallarni taklif qilmoqda. Istemolchilar QR code orqali to'lovlarni amalga oshirib o'z ehtiyojlarini qondilish mumkin. Bu imkoniyatlardan bozorlarda, sayyor yarmarka va ayniqsa, transportda foydalanilish aholi uchun judaqulay bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, mobil tizimlarning funksional imkoniyatlarini

kengaytirish o'z navbatida, foydalanuvchilarni masofadan identifikatsiya qilish tizimlarini rivojlantirish zaruriyatini yaratadi.

Masofadan identifikatsiya qilish bank xizmatlarini soddalashtirgan holda, bank operatsiyalarini nazorat qilish talablarini ta'minlaydi. Mijozlar uchun esa bank xizmatlaridan qog'oz xujjatlarni qayta taqdim etmagan holda foydalanish, bankning bir filiali mijoz bo'la turib, boshqa filiallari va kelajakda boshqa bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi.

O'z navbatida, masofaviy identifikatsiya qilish bank xizmatlari tannarxi kamayishi natijasida yangi mijozlarni jalb qilish hamda moliya bozorida raqobatni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada bu ishlarni yo'lga qo'yish bank daromadini oshirishga ham turtki bo'ladi. Shuning uchun 2018 yilda bank mijozlari bo'lgan jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish va ularga xos raqam berishni joriy qilish orqali Bank depozitorlarining milliy axborot bazasini (BDMAB yoki NIBBD) modernizatsiyalash ishlari olib borilmoqda.

Jismoniy shaxslarga xos raqam ajratish "Elektron hukumat" tizimi uchun xam dolzarb bo'lib, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqamini identifikator sifatida axborot tizimlariga joriy etish taklif qilinmoqda.

Mobil to'lov tizimlari tijorat banklari tomonidan mustaqil yoki nobank tijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda joriy qilinib, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda. Bulardan keng tarqalgan tizimlar qatorida Click, Payme, U-PAY, M-bank xamda Davr Bank, Xamkorbank, TIF Milliy banki, Agrobank, Asakabank va boshqa banklarning mobil to'lov tizimlarini ko'rsatish mumkin. Masofaviy bank xizmatlarini (mobil-banking, internet-banking) keng joriy qilish, o'z navbatida, yangi bank xizmatlari bo'yicha tegishli marketing ishlarini olib borilishini taqozo etadi. Xorijiy amaliyotda, internetning interaktiv imkoniyatlaridan foydalanuvchi banklar ijtimoiy tarmoqlarda faol reklama kampaniyalarini olib boradilar.

2017 yil 1 yanvarholatiga muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, terminallar , bankomatlar va infokiosklar to'g'risida ma'lumot²⁶

Tijorat banklari	Muomala ga chiqarilgan bank plastik kartochkalari	Terminallar soni	Bankomatlar soni	Infokiosklar soni
TIF Milly Bank	2 872 747	22 238	113	174
Sanoat qurirish banki	1 065 862	11 535	18	112
Agro bank	3 700 222	30 110	33	120
Mikrokredit bank	1 268 966	14 370	10	23
Xalq banki	3 492 459	26 830	21	80
Savdogar bank	264 345	6 390	11	13
Qishloq Qurilish banki	555 556	10 428	5	144
Turon banki	355 067	4 249	1	110
Hamkor banki	404 299	16 210	2	546
Asaka banki	1 737 917	11 128	27	66
Ipak Yulibanki	605 684	7 873	15	79
UT banki	18 531	111		
Trast banki	182 832	3 954	4	114
Aloqa banki	320 784	5 650	7	89
Ipoteka banki	1 754 418	20 507	14	104
KDB bank	67 507	236	3	
Turkiston bank	19 984	845	1	3
Universalbank	40 288	1 148		3
Kapital bank	360 752	4 533	10	2 389
Ravnaq bank	16 904	223		2
DAVR BANK	74 117	2 986		
Infin bank	104 186	2 853	1	449
Asia Alliance bank	119 497	2 329	3	16
Hi-Tech bank	9 112	47		2
Orient Finance bank	111 307	1 753	2	15
Jami	19 523 343	208 536	301	4 653

²⁶ www.cbu.uz sayti va tijorat banklarini saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomondan tayyorlandi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki muomalaga chiqarilgan plastik kartalar soni 19523343 tani tashkil qilib Xalq banki bilan Agro bank xissasiga 30% dan ortiq emissiya qilingan kartalar to'g'ri kelmoqda.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari ijtimoiy tarmoqlardan bank mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha marketing ishlarini olib borish uchun foydalanishmoqda. Banklar tomonidan (Davr Bank, Hamkorbank, Universalbank, Kapitalbank, Agrobank) ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan akkauntlar bank mahsuloti va xizmatlari buyicha marketing ishlarini olib borishning asosiy vositasi bo'lib, mijozlar bilan o'zaro aloqa o'rnatish, mijoz to'g'risida kerakli ma'lumotni yig'ish, mijozlarni qo'llab quvvatlash sifatini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Misol uchun, Davr bank va Hamkorbank ijtimoiy tarmoklar orqali o'z mobil ilovalarini doimiy ravishda taqdim qiladi va qayta aloqa sifatida foydalanuvchilarning taklif va e'tirozlari ijtimoiy tarmokda bildiriladi. Natijada foydalanuvchilarning, ya'ni bank mijozlarining istaklariga operativ ravishda javob beriladi, zarur xollarda tadbirlar amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoklar banklar uchun mijozlar bilan aloqa kilishning muxim vositasi xisoblanadi.

Bundan tashqari Davr Bank va TIF Milliy Bank tomonidan joriy etilgan Koll sentr (Call Center) mijozlarning taklif va e'tirozlari hamda ularda yuzaga kelgan savollarga mutaxassislar tomonidan aniq va to'liq ma'lumotlar olish imkoniyati mavjuttur. Natijada mijozlarning savollariga operativ javob beriladi va bank tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflari amaliyotga tadbiq qilishda xarakat qilishadi.

3.2. Tijorat banklarda innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini aniqladik.

Markaziy bankning majburiy zahira stavkalarining yuqori ekanligi.

Markaziy bankning tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarga nisbatan o'rnatgan majburiy zahira stavkalarining yuqori ekanligi depozitlarga banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalarini oshirish imkonini bermaydi. Bu o'z - o'zidan Bank imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bu esa bank tomonidan beroladigan kreditlar miqdorini cheklab qo'yadi. Majburiy zahira stavkalarining yuqori ekanligini asoslash uchun xorijiy davlatlarning bank amaliyoti ma'lumotlariga murojaat qilamiz. Markaziy bankning majburiy zahira stavkasi:

Yevrohudud mamlakatlarida - 2,0 %;

Rossiyada - 2,5%;

Qozogistonda - 1,5%.

Tijorat banklari mijozlarining uzoq muddatli depozitlardan oladigan real qiymatining devalvatsiya va inflyatsiya ta'sirida real qiymatining pasayishi.

2012 yilda so'mning AQSH dollariga nisbatan devalvatsiya darajasi 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda esa, 92,4 foizni tashkil qildi.

Respublikamizda inflyatsiyaning yillik darajasi 2017 yilda **14,4 %** foizni tashkil qildi. Agar inflyatsiya darajasi va devalvatsiya sur'atini qo'shibhisoblaydigan bo'lsak, u holda, banklar mijozlarining uzoq muddatli depozitlardan oladigan real qiymatini 106,8 foizga pasayganligining guvohi bo'lamiz.

Tijorat banklarida transformatsiya riskining mavjudligi va uning banklarning depozit bazasi barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sirining mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasining bank amaliyotida depozitlar muddatiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

30 kungacha muddatga jalb qilingan depozitlar;

30 dan 60 kungacha muddatga jalb qilingan depozitlar;

61 kundan 90 kungacha muddatga jalb qilingan depozitlar;

91 kundan 180 kungacha muddatga jalb qilingan depozitlar;

181 kundan 365 kungacha muddatga jalb qilingan depozitlar;

1 yildan ortiq muddatga jalb qilingan depozitlar.

Har bir guruhbo'yicha jalb qilingan depozitlarning summasidan ushbu muddatga berilgan kreditlarning summasi ortib ketmasligi lozim. Aks holda, tijorat bankida transformatsiya riski yuzaga keladi.

Hozirgi davrda respublikamizning qator tijorat banklarida transformatsiya riskining mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.

Transformatsiya riski tijorat banklarining likvidliligi vato'lovga qobilligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Buning natijasida banklarning depozitlarga foiz to'lash imkoniyati pasayadi, jalb qilingan depozitlarning asosiy qarz summasi va ularga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida va to'liqqaytara olishi qiyinlashadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi banklarning likvidliligi vato'lovga qobilligining qay darajada transformatsiya riskiga bog'liqligini ko'rsatdi. Chunki inqiroz ta'sirida tijorat banklarida muddatli depozitlar taklifi kamaydi. Kreditlarni esa, shartnoma muddati tugagunga qadarqaytarishning iloji yo'q. Buning ustiga, inqiroz tufayli tijorat banklari kreditlarining katta qismi qaytmadi. Bularning barchasi oxir-oqibat tijorat banklarida likvidlilik muammosining chuqurlashishiga va transformatsiya riskining kuchayishiga sabab bo'ldi.

Respublikamiz tijorat banklari tomonidan muddatli va jamgarma depozitlariga nisbatan belgilangan foiz stavkalarining beqarorligi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobida amalga oshirilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, 2014-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining jismoniy shaxslarning muddatli va jamgarma depozitlariga to'laydigan foizlarining o'rtacha yillik stavkasi pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Shuningdek, 2012-2016 yillarda yuridik shaxslarning muddatli

depozitlari o'rtacha yillik foiz stavkasi pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi.

Tijorat banklari qo'shimcha kapitalining yetarli emasligi.

Tadqiqotning ikkinchi bobida amalga oshirilgan taxlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklarida qo'shimcha, kapitalning umumiy kapital hajmidagi salmog'i o'rtacha 5-6 foizni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida qo'shimcha kapitalning yetarli emasligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Respublikamizning tijorat banklarining 93 foizida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining mavjud emasligi (2017 yilning 1 yanvar xolatiga);

tijorat banklarida qaytabaholash summasi miqdorining nisbatan kichik ekanligi;

tijorat banklari koshida kredit muassasalari ochish amaliyotining takomillashmaganligi.

Rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida tijorat banklari qo'shida trast, lizing, faktoring va forfeyting kompaniyalari kabi kredit muassasalarini ochish keng tarqalgan. Buning natijasida ularning aktiv opearsiyalarini rivojlantirish imkoni yuzaga keladi hamda qo'shimcha kapitali miqdori oshadi.

Tijorat banklari kapitali tarkibida beqaror moliyalashtirish manbai bo'lgan resurslar salmog'ining nisbatan yuqori ekanligi.

Devalvatsiya zahirasi va imtiyozli kreditlash fondining mablaglari respublikamiz tijorat banklari kapitalining umumiy hajmida yuqori salmokni egallaydi. Buning natijasida tijorat banklari kapital bazasining barqarorligiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga kelmokda.

Respublikamiz tijorat banklari kapital bazasining barqarorligini oshirish bilan bog'liqbo'lgan muammolar.

Mazkur muammolar majmuiga quyidagi dolzarb muammolar kiradi:

Respublikamiz tijorat banklari umumiy kapitalining hajmida nobarqaror resurs manbai bo'lgan devalvatsiya zahirasi yuqori salmoqqa ega ekanligi;

Mamlakatimiz tijorat banklarida joriy yil foydasi va taqsimlanmagan foydaning umumiy kapital hajmidagi salmog'ining kichikligi;

Tijorat banklarida ikkinchi darajali kapitalni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammo.

Respublikamiz tijorat banklari innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi talkiflar va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Banklarning talab qilib olinadigan depozitlardan tog'ridan- tog'ri resurs sifatida foydalanish amaliyotiga chek qo'yish yo'li bilan ularning sof foizli spread koeffitsiyentining real xolatiga baho berish va uning me'yoriy darajasiga erishish choralarini ko'rish lozim.

Hozirgi davrda respublikamiz tijorat banklari talab qilib olinadigan depozitlardan tog'ridan-tog'ri resurs sifatida foydalanishmoqda. Buning natijasida banklarning sof foizli spread koeffitsiyentining real darajasiga baho berish keyin bo'lmoqda. Chunki, sof foizli spread koeffitsiyentini aniqlash metodikasida talab qilib olinadigan depozitlar summasi va unga hisoblangan foizlarni hisobga olishga ruxsat etilmaydi.

Respublikamiz tijorat banklarining nokumulyativ imtiyozli aksiyalarini chikarish va investorlarning ushbu aksiyalardan oladigan daromadlarini soliqdan ozod qilish lozim. Buning natijasida, birinchidan, mazkur aksiyalarning investitsion jozibadorligi oshadi; ikkinchidan, tijorat banklarining uzoq muddatli resurslari miqdori oshadi; uchinchidan, tijorat banklarining birinchi darajali kapitali hajmi sezilarli darajada oshadi.

Ko'pchilik o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi muammosi mavjud. Xususan, O'zbekistonda uzoq muddatli depozitlarning umumiy hajmidagi salmog'i 20 foizdan oshmaydi. Shu sababli, mazkur mamlakatlarda tijorat banklarining kapitali investitsion loyihalarni

moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi.

Xususiy tijorat banklarining mamlakat bank tizimidagi mavqeyini mustaxkamlash orqali bank tizimini qayta tarkiblashni takomillashtirish lozim. Buning uchun:

birinchidan, xususiy tijorat banklarining muddatli depozitlarini Markaziy bankning majburiy zahira talabnomasidan ozod qilish lozim.

Buning natijasida xususiy banklarning muddatli depozitlar jalb qilish imkoniyati oshadi va shuning asosida ular depozitlarining hajmida muddatli depozitlarning salmog'i oshadi. Bu esa uz navbatida, xususiy tijorat banklarining kreditlash hajmini oshishiga olib keladi.

Xususiy tijorat banklari muddatli depozitlarini majburiy zahira talabnomasidan ozod qilish ularni noteng raqobat muxitiga chiqarib qo'ymaydi. Chunki, xususiy banklarning banklararo bozordagi mavqeyi juda past. Bundan tashqari, xususiy tijorat banklarida birinchi darajali kapitalning miqdori davlat banklari va aksiyadorlik-tijorat banklarining birinchi darajali kapitali miqdoriga nisbatan juda kichik. Bu esa ular aktiv operatsiyalari hajmini qisqavaqt ichida keskin oshirish imkonini bermaydi. Buning sababi shundaki, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining faoliyatiga nisbatan urnatilgan 15 ta iqtisodiy me'yoridan 13 tasi banklarning birinchi kapitaliga nisbatan belgilangan. Hozirda ustav kapitalini minimal miqdori 100 mlrd so'mdan kam bo'lmasligi talabi joriy etilgan. Bu o'z o'rnida belgilangan limitlarni o'zgarishiga olib keladi.

Ikkinchidan, xususiy tijorat banklari sof foizli spread koeffitsiyentining me'yoriy darajasini ta'minlash, transformatsiya riskini yuzaga kelishiga yo'lqo'ymaslik orqali likvidlilik riskining chuqurlashishiga yo'lqo'ymasliklari lozim.

Uchinchidan, xususiy tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirish vaqimmatli qog'ozlar vositasidagi investitsion faoliyatini davlat tomonidan bilvosita qullab-quvvatlashni amalga oshirish lozim. Buning uchun, birinchidan,

xususiy tijorat banklari tomonidan chikarilgan subordinal qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar soliqlardan ozod qilinishi lozim; ikkinchidan, ularning yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalari miqdorini majburiy zahira ajratmalarini hisoblashda hisobga olish lozim.

Xususiy tijorat banklari aktivlarining daromadlilik va likvidlilik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali banklar aktivlarini qayta tarkiblashni takomillashtirish lozim.

Buning uchun, fikrimizcha, quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblansin:

a) kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'ini 1 foizdan oshishiga yo'lqo'ymaslik orqali tasniflangan kreditlar tarkibining barqarorligiga erishish lozim;

b) yuqori likvidli kimmatli kogoszlarga qilingan investitsiyalar hajmini oshirish yo'li bilan banklarning joriy likvidlilikini ta'minlash maqsadida saklab turilgan kassali aktivlarning miqdorini kamaytirish zarur;

v) to'lovi davlat tomonidan kafolatlangan korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ularni tijorat banklarining likvidli aktivlari sifatida tan olish yo'li bilan banklarning aktivlari daromadlilik va likvidlilik o'rtasidagi mutanosiblik darajasini oshirish lozim.

To'lovi davlat tomonidan kafolatlangan korporativ obligatsiyalar iqtisodiyotning yetakchi soxalariga mansub bo'lgan korxonalar tomonidan chiqarilishi lozim. Buning natijasida, birinchidan, ushbu korxonalar investitsion xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb etadi; ikkinchidan, xususiy tijorat banklari ushbu qimmatli qog'ozlarni sotib olish yo'li bilan daromad keltirmaydigan kassali aktivlar miqdorini kamaytirish imkoniga ega bo'ladi.

Xususiy tijorat banklari aktivlarini oqilona tarkibini shakllantirish

maqsadida kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalarining normativ darajasini belgilab qo'yish lozim.

Respublikamizning xususiy tijorat banklarida kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahira ajratmalarining normativ darajasi hisobga olinmaydi. Fikrimizcha, mazkur zahira ajratmalarining normativ darajasidan amaldagi darajasining farqlanishi doimiy nazorat ob'yektiga aylanishi lozim. Buning uchun:

birinchidan, zahira ajratmalari tog'ri tashkil qilinishi lozim (ya'ni kreditlar tog'ri tasniflanishi kerak);

ikkinchidan, tijorat bankining barcha filiallarida muddati o'tgan foizlar o'zvaqtida 16377 - "Muddati o'tgan foizlar" hisobraqamiga olinishi lozim. Bankning dasutriy ta'minoti muddati o'tgan foizlarni avtomatik ravishda muddati o'tgan foizlar hisobraqamiga olinishini ta'minlaydigan darajada takomillashgan bo'lishi kerak. Chunki hozirgi davrda Bosh bank tomonidan kreditlar bo'yichazahiralarni tog'ri tashkil qilinayotganligini operativ tekshirish imkoniyati mavjud emas.

Bundan tashqari har bir operatsiya uchun savdo va xizmat ko'rsatish korxonalaridan olinadigan komission to'lovlar bo'ib mijoz uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Bank mijozlari uchun muhim:

- o'tkazmaning yuqori tezligi;
- past komissiya stavkalari;
- xavfsizlikning ilg'or axborot texnologiyalariga asoslangan xavfsizlik;
- pul o'tkazmasini qayta ishlashning soddaligi.

Shu bilan birga, xalqaro tizimlarning plastik kartochkalari xorijiy valyutaning mavjudligini nazarda tutadi. Shunday qilib, cheklangan miqdordagi shaxslarning potentsial egalari bo'lishi mumkin.

Xalqaro to'lov tizimlarining plastik kartochkalarini joriy etish bilan bog'liq qiyinchiliklar, shuningdek, mamlakatda qog'ozsiz texnologiyalarni rivojlantirishga bo'lgan real ehtiyoj, banklarga ko'proq ommaviy iste'molchilar uchun o'z kartalarining bozorini rivojlantirishni talab qiladi. Zamonaviy xalqaro to'lov kartalari, asosan, banklarda naqd pul olish va elektron do'konlardan xarid qilish uchun to'lash uchun mo'ljallangan debet kartochkalari sifatida belgilanishi mumkin.

Bankning bank kartalari bilan ishlashini tahlil qilish bankning mintaqadagi etakchi mavqeyiga qaramasdan, erishilgan pozitsiyalarni yo'qotmaslik uchun zudlik bilan amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir qator tadbirlar mavjudligini ko'rsatdi:

- karta mahsulotlarini sotish hajmini ko'paytirish;
- bank kartalariga xizmat ko'rsatish uchun infratuzilmani rivojlantirish, savdo tashkilotlari va servis kompaniyalari bilan tuzilgan bitimlarni tuzish, naqd pul mablag'lari uchun qo'shimcha ish joylarini 24 soat davomida ochish;
- tematik reklama kampaniyalarini tashkil qilish, reklama blyuteni, katalog va prospektlarni ishlab chiqish bilan reklama va marketing faoliyatini faollashtirish;
- mutaxassislar malakasini oshirish.
- bu kartalarni masofadan boshqarish uchun maxsus ilova yaratish yuqorida korilgan muammolarni yechimi deb hisoblaymiz.

III bob bo'yicha xulosalar

Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan onlayn-banking texnologiyalarini, jumladan, mobil banking xizmatlarini real vaqt rejimida ko'rsatish tizimlarini yanada rivojlantirish, barcha banklarning kartalarini to'liq qamrab olish maqsadida jismoniy shaxslar uchun mobil to'lov dasturlarini yaratish va joriy qilish bo'yicha reja-grafiklarni ishlab chiqilgan va u amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari ijtimoiy tarmoqlardan bank mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha marketing ishlarini olib borish uchun foydalanishmoqda. Banklar tomonidan (Davr Bank, Hamkorbank, Universalbank, Kapitalbank, Agrobank) ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan akkauntlar bank maxsuloti va xizmatlari buyicha marketing ishlarini olib borishning asosiy vositasi bo'lib, mijozlar bilan o'zaro aloqa o'rnatish, mijoz to'g'risida kerakli ma'lumotni yig'ish, mijozlarni qo'llab quvvatlash sifatini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

karta mahsulotlarini sotish hajmini ko'paytirish, bank kartalariga xizmat ko'rsatish uchun infratuzilmani rivojlantirish, savdo tashkilotlari va servis kompaniyalari bilan tuzilgan bitimlarni tuzish, naqd pul mablag'lari uchun qo'shimcha ish joylarini 24 soat davomida ochish, tematik reklama kampaniyalarini tashkil qilish, reklama blyuteni, katalog va prospektlarni ishlab chiqish bilan reklama va marketing faoliyatini faollashtirish, mutaxassislar malakasini oshirish innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatini yarartadi.

Masofadan identifikatsiya qilish bank xizmatlarini soddalashtirgan holda, bank operatsiyalarini nazorat qilish talablarini ta'minlaydi. Mijozlar uchun esa bank xizmatlaridan qog'oz xujjatlarni qayta taqdim etmagan holda foydalanish, bankning bir filiali mijozi bo'la turib, boshqa filiallari va kelajakda boshqa bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Mobil to'lov tizimlari tijorat banklari tomonidan mustaqil yoki nobank tijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda joriy qilinib, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda. Bulardan keng tarqalgan tizimlar qatorida Click, Payme, U-PAY, M-bank xamda Davr Bank, Hamkorbank, TIF Milliy banki, Agrobank, Asakabank va boshqa banklarning mobil to'lov tizimlarini ko'rsatish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqillik yillari mobaynida Respublikamizda ham bank tizimida ahamiyatli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, tijorat banklar faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi bir qator muhim qonun-hujjatlar qabul qilindi va ushbu sohaning milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmog'i tashkil etuvchi sifatidagi rivoji uchun katta shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 23.03.2018 y. № PQ-3620 amalga oshirish uchun zarur qonuniy-huquqiy baza shakllantirilgani, uni faol rivojlantirish uchun amaliy iqtisodiy rag'batlar va yangiliklar hamda preferensiyalar yaratilgani, litsenziyalar berish tizimi sezilarli darajada soddalashtirilgani va liberallashtirilgani qayd etib o'tish lozim. Bank faoliyatini rivojlantirib borish, fan va texnologik yangiliklarni bank faoliyati amaliyotida toboro kengroq qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga xizmat qilishda asosiy vazifalardan biri sifatli, arzon va qulay xizmatlarni taklif qilish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida tijorat banklari tomonidan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish va uning ustidan nazorat sifatini oshirish, xalqaro tijorat banklari tajriba va amaliyotidan kelib chiqqan holda Respublikamizdagi tijorat banklarining ish sifati samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat ekanligini bildiradi.

Tadqiqot ob'ekti hisoblangan "DAVR BANK" XATB misolida tadqiqot natijasi sifatida biz mazkur bitiruv malakaviy ishi doirasida Respublikamizda innovatsion bank xizmatlarini tashkiliy asoslarni yanada takomillashtirishga qaratilgan quyidagi xulosaga keldik:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning asosiy maqsadi yuqori foyda olish bo'lib hisoblanadi. Korxonalarning, bajarayotgan operatsiyalari tez amalga oshirish uchun o'tkazmaning yuqori tezligi yuqori bo'lishi lozim. Bu o'tkazmalarni tezligi

qanchali yuqori bo'lsa shunchalik korxonalarni ish samarasi yuqori bo'ladi.

2. Hozirgi zamonda banklararo raqobat kuchli bo'lgani sababli mijozlarga komissiya stavkalari muhim ro'l o'ynaydi. Misol tariqasida bank komissiyalari bilan bog'liq harajatlar korxonlarni boshqa operatsion xarajatlarida aks etadi. Har bir xo'jalik yurutuvchi subyekt hamda jismoniy shaxslar (umuman olganda bank mijozlari) harajatlarni optimallashtirish maqsadida o'zi uchun narx jihatdan qulay bo'lgan bankni tanlaydilar. Shuning uchun bank tariflarini ko'rib chiqib raqboatbardosh tariflar ishlab chiqish kerak deb hisoblaymiz.

3. Banknig mijozlar sonini ortishi bankdagi aylanma mablag'larni bilan birga daromadi ortishidan dalolad beradi. Tijorat banklarda marketing bo'limlari shunday darajada ishlashi kerakki mijozlarni ozi qiziqib kelishlari kerak. Misol tariqasida imtiyozli shartlarda bank plastik kartalari emissiya qilish hamda bank mijozlariga qulay sharoit yaratib berish o'z o'zidan bank tomonidan jalb qilingan mablag'larni ko'payishiga olib keladi. Shunday ekan, banklarda emissiya qilinayotgan bank karta turlarini ko'paytirish va bank kartasini emissiya qilishni soddalashtirish lozim deb hisoblaymiz.

4. Bank mijoz uchun degan shior bilan har bir tijorat banki faoliyat yuritadi. Mijozlarga qulay bo'lishi uchun bank kartalariga xizmat ko'rsatish uchun infratuzilmani rivojlantirish, savdo tashkilotlari va servis kompaniyalari bilan bitimlarni tuzish, naqd pul mablag'lari uchun qo'shimcha ish joylarini yaratish, 24 soat davomida inkassatsiyani qabul qiladigan bankomatlarni banklar tomonidan o'rnatish. Buning natijasida mijozlar tomonidan operatsion kun tugagandan so'ng ham mijozlar tomonidan qo'shimcha operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bunday ish tashkil etilgan banklarga mijozlarni o'zi qiziqish bildiradilar. Bu boshqaruv faoliyati bank va korxonaning strategiyasini yanada yaxshiroq aniqlab olish imkonini beradi.

5. Tijorat banklari o'z faoliyatlarini va mijozlar tahlil qilishi, bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni banklarni siyosatidan kelib chiqib prognozlash mumkin. Kelgusida bank ravnaq topishi uchun chet el tajribasi va malakali mutaxassislar yordamidan foydalanish kerak ekanligini hisobga olgan holda,

bank mutaxasislari tijorat banklarini moliyaviy holatini, rentabelligini, to'lov qobiliyatini va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarini har tomonlama tahlil qilishlari lozim. Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlar nafaqat o'tgan yillardagi darajasi bilan, balki ushbu tijorat bankiga raqobatchi bo'lgan boshqa banklar bilan taqqoslashi, hamda ilmiy va amaliy asoslangan me'yoriy darajalar bilan solishtirilib ko'rilishi kerak. Bunda banklarning iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat statistika idoralaridan olish mumkin. Shunday ekan, tijorat banklarini moliyaviy holatini, rentabelligini, to'lovga qobilligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarning boshqa banklar bo'yicha tahlil qilib chiqish lozim. Bu bank daromadini nimalardan shaklanayotganini tahlil qilishga asos yaratadi va bu tahlillar asosida yangi bank xizmatlarini joriy qilish yoki mavjud xizmatlarni yaxshilash imkoniyatini beradi degan xulosaga keldik.

6. Bugungi kunda bank xodimlarni saralash, tanlash, ishga qabul qilish va personalni boshqarishni takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishga ixtisoslashgan konsalting kompaniyalar mavjud bo'lib, shu kompaniyalar xizmatidan foydalangan xolda, malakali xodimlarni jalb qilish, tayyorlash va qayta tayyorlash orqali xodimlar salohiyatini oshirish kerak deb hisoblaymiz. Bular asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida personalni boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etib innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishga zamin yaratishi mumkin.

7. Zamonaviy texnologiyalar davrida bank mijozlarini ishini tezlashtirish hamda bank xodimlarini ish ko'lamini kamaytirish maqsadida masofaviy bank xizmatlarini yanada rivojlantirish kerak deb hisoblaymiz. Mizoj bank binosiga kelmasdan turib barcha operatsiyalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi, pirovard natija hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T. O'zbekiston. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalash to'g'risida”gi Qonuni.– Toshkent. 2006 yil 15 sentyabr, O'RQ-50-son
3. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida. Toshkent sh., 2012 yil 2 may, O'RQ-328-son
4. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. –Toshkent, “O'zbekiston”, 1996.
5. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrir), - Toshkent, “O'zbekiston”, 2009.
6. O'zbekiston Respublikasining «Mikrokredit tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2010.
7. O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2010.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2015 yil 28 apreldagi PQ-2340-son qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 mayda qabul qilingan «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va resurs bazasini shakllantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2344-sonli Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 23.03.2018 y. № PQ-3620.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. 2017 yil 2 sentabr, №PF-5177

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 12.09.2017 y. № PQ-3270.

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ 3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 noyabrdagi PQ 3383-sonli "O'zbekiston respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni. 2017 yil 2 fevral, №PF-4947

16."2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi 15.08.2017 y. PF-5024

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlari.

17. Sh.M. Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

18. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

III. Sohaga oid me'yoriy xujatlar.

19. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi "Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida"gi Nizomi. Toshkent, 2000 yil 19 may
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/11-son qaroriga bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operastiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma;
21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015 yil 13 iyundagi 14/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan jalb qilinadigan depozitlar (omonatlar) bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish mexanizmi to'g'risida"gi Nizom
22. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2009-yil 16-martdagi 7/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi yo'riqnoma";
23. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 14-avgustdagi 17/2-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida nizom" kabilarni qayd etish mumkin.

IV. Asosiy adabiyotlar

24. Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo'raev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. –T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2017. 35– 71 b.
25. Omonov A.A. "Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish". T.: "Fan va texnologiya" Monografiya, 2008 yil. 248 b.
26. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. O'quv qo'llanma TDIU, "MAX-PRINT" MChJ, 2008.-432 b.
27. Toymuxamedov I.R. Bank ishi. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashiryoti, 2005. - 185 b.

28. Abdullaev Yo.A., Qoraliev T.M., va boshqalar “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma - B.M.: T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015. - 576 b.

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

29. Koraliev T.M. va boshqalar. “Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish”. O‘quv qo‘llanma. T. “Iqtisod-Moliya”, 2016 y. – 115 b.

30. Ray Bert Westerfield. Banking principles and practice. –UK: 2014

31. Indian Institute Of Banking and Finance. International Banking Operations. - UK: Macmillan Publisher, 2015.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va xisobotlar

32. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik xisobotlari 2012-2016 yy.

33..O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik xisobotlari.

34.“DAVRBANK” XATB yillik xisobotlari 2014-2017 yy

35..Bozor, pul va kredit.// №1-4. 2016 y

36. Bank axborotnomasi gazetasi. 2016 yil №1-22

VII. Internet saytlari

37.www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.

38. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

39. www.press-service.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot hizmati veb sahifasi.

40. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi statistika Qo‘mitasi veb sahifasi.

41. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasining Xukumat portali.

42. www.ziynet.uz – Axborot ta’lim tarmog‘i.